



O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Buxoro Davlat Universiteti Ijtimoiy-Iqtisodiy fakulteti

Tarix ta'lim yo'nalishi

Bitiruv malakaviy ish

Mavzu: Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixi

(XIX asr oxiri-XX asr birinchi choragi)

Tarix ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi - Dehqonov Feruz

Ilmiy rahbar tarix kafedrası katta o'qituvchisi-Qudratov Shuhrat

Buxoro-2016

MUNDARIJA

Kirish.....3-5

I. Bob. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Buxoro va Rossiya

munosabatlarining shakillanish jarayonlari.....6-28

1.1. Amirlik iqtisodiyotida kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi. Buxoro-Rossiya savdo va iqtisodiy shartnomalarning o'ziga xosligi.....6-19

1.2. Buxoroda Rossiya sanoat korxonalarining qurilishi, savdo aloqalarida eksport-import tovarlari.....20-28

II.Bob.XX asr boshlaridagi Buxoro-Rossiya munosabatlarining yangi

bosqichga o'tilishi va uning o'ziga xos xususiyatlari.....29-54

2.1. Buxoroda rus banklari, savdo uylarining tuzilishi va ularning Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalardagi roli29-39

2.2. Buxoro amirligida ichki va xalqaro savdo.....40-54

Xulosa55-56

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....57-58

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikka erishganiga qariyb chorak asr to'ldi. Bu tarixiy davrda hayotimizning barcha sohalarida mazmunan katta o'zgarishlar bo'ldi. Mamlakatimizda milliy mustaqillik mustahkamlanib, jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lgan. Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli risolasida, "Biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimiz, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur"¹ deb tariximizning millatimiz hayotida tutgan o'rniga alohida ahamiyat berdi. O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining hozirgi bosqichida Vatan tarixining barcha davrlarini yangi metodologik asosda to'g'ri tahlil etish va bayon qilish, xolisona xulosalar chiqarish tarix fanining eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Mana shu jihatdan olganda, Buxoro amirligining XIX asrning oxiri-XX asr boshlaridagi iqtisodiy munosabatlar tarixini qayta o'rganish va ilmiy jihatdan tahlil etish dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Darhaqiqat, "Buxoro amirligining bu davrdagi iqtisodiy ahvoli tarixiga nazar solsak, unda ichki va tashqi savdo rivojlanganligini, shuningdek, Rossiya mustamlakasi sifatida uning iqtisodiy ta'siri ostida bo'lganligiga guvoh bo'lamiz".² Buxoro amirligida Rossiya sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning qurulishi, rus banklarining filiallari hamda savdo uylarining tashkil etilishi, bir tomondan, mamlakatning iqtisodiyotini rivojlantirsa, ikkinchi tomondan, undagi mavjud ichki ishlab chiqaruvchi kuchlarga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Rossiya imperiyasidan tayor mahsulotlarning ko'plab kiritilishi oqibatida mahalliy hunarmandlar siqib qo'yildi. "Amirlikda rus temir yo'llarining qurilishidan maqsad o'lkani arzon xom-ashyo bazasiga aylantirish va ya'na shuningdek tabiiy boyliklarini tez va arzon tashib ketishdan iborat bo'lgan"¹.

Mavzuning o'rganilish darajasi. O'rta Osiyo xonliklari va Rossiyaning XIX

¹Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.:O'zbekiston, 1999. –B. 28.

²Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar.-T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011,3-bet.

asr oxiri-XX asr birinchi choragida olib borilgan diplomatik munosabat tarixini yorituvchi asarlar juda ko'p. Bu mavzuda mahalliy tarixchilar bilan bir qatorda xorijliklar, xususan rus tarixchilari ham bir qancha tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bunday tadqiqotlar qatorida Rashidov U, Rashidov O' (Buxoroning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tarixidan 1900-1925y.y-Buxoro.: "Buxoro", 2013), (Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar.-T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011) va boshqalarni kiritish mumkin. Buxoro-Rossiya iqtisodiy munosabatlarini o'rganilishi shuningdek ma'lum darajada Z.K.Ahmedjonova, Sh.H.Avezova, D.X.Razzoqov, R.E.Xoliqova² va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Mustaqillik yillarida bu mavzuga tarixiy haqiqat ko'zi bilan qaralib mahalliy tarixchilar tomonidan qator ilmiy xulosalarga boy asarlar nashr etildi. Bu sohada F.Qosimov, D.Alimova, S.Agzamxo'jayev, R.Abdullayev, B.Ergashev kabi taniqli olimlarning ishlari diqqatga sazovor. Bundan tashqari XIX asr-XX asrlar davomida Buxoroga kelgan rus elchi va sayohatlarining esdaliklari ham bu mavzuni yorituvchi birinchi darajali manbalar qatoriga kiradi. Xullas, bu mavzu bugungi kunga qadar atroflicha o'rganilgan bo'lsa-da, ba'zi bir jihatlari to'liq o'rganilmagan. Bu mavzuni tadqiq etish uchun arxiv materiallari va turli olimlarga ma'lum bo'lmagan esdaliklar va ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi XIX asr oxiri-XX asr birinchi choragida ajdodlarimizning Rossiya xalqlari bilan olib borgan diplomatik va iqtisodiy munosabatlari tarixini o'rganishdan iboratdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni hal etishni o'z oldimizga qo'ydik:

- a) Rossiya bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi savdo aloqalari (XIX asr oxiri va XX asr boshi)
- b) Buxoro amirligining Rossiya bilan savdo va iqtisodiy

¹ Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B. 4.

² Rashidov U, Rashidov O' Buxoroning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tarixidan (1900-1925y.y). - Buxoro.: Buxoro, 2013. -B.7.

shartnomalari (XIX asrning so'ngi choragida) c) Buxoro-Rossiya munosabatlarining XX asrning boshlaridagi o'ziga xosligi va amirlikda rus banklari va savdo uylarining o'zaro munosabatlardagi o'rni d) Buxoro-Rossiyaning XIX asr oxiri- XX asr boshlaridagi o'zaro iqtisodiy aloqalar tarixi tarixshunosligi va ya'na shuningdek boshqalar **Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati.** Biz tanlagan "Buxoro-Rosiya iqtisodiy aloqalari tarixi (XIX asr oxiri-XX asr birinchi choragi) mavzusidagi bitiruv malakaviy ishdan maktab, akademik litsey, kasb hunar kolejlari, oily o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixi fanidan amaliy mashg'ulotlarda qo'shimcha material sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikkita bob, to'rta bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati iborat holda yozildi.

I. Bob. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Buxoro va Rossiya munosabatlarining shakillanish jarayonlari

1.1. Amirlik iqtisodiyotida kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi.

Buxoro-Rossiya savdo va iqtisodiy shartnomalarning o'ziga xosligi

Buxoro amirligi Rossiya Protektoriga aylangach, garchand zaifroq bo'lsa-da kapitalizmning ba'zi elementlari kirib kela boshladi. Rossiya sanoati o'sib borib xom ashyoga bo'lgan talabi kuchaygan sayin Buxorodan qishloq xo'jalik mahsulotlariga talab kuchaydi. Ayniqsa paxta oldi-sotisi ikki mamlakat o'rtasidagi savdoning asosini tashkil etdi. Buxoro iqtisodiyotida kapitalistik munosabatlarni kirib kelishini tezlashtirgan omillardan ya'na biri amirlik hududida temir yo'llarning qurulishi bo'ldi. Temir yo'l amirlikni qo'shni davlatlar va Rossiyaning sanoat markazlari bilan bog'ladi. XIX asr 80-yillarida faqat harbiy strategik yo'nalishda qurila boshlandi. 1886-yilga Krasnovodskdan Chorjo'ygacha etib keldi.¹ 1887-yili Olot, Qorako'l orqali Yangi Buxorogacha(Kogon) yetdi. 1888-yilda Qiziltepa va Karmana orqali Samarqandgacha yetib keldi. Temir yo'l qurulishida ham Rossiya hukumati mablag'lari va amirning mablag'laridan foydalanildi. Bu esa, Buxoro mulklarining ancha qismini Rossiya imperiyasi tasarrufiga o'tib ketishini ta'minlangan.² Agar Chorcho'ydan Kattaqo'rg'ongacha temir yo'l Rossiya mablag'i hisobidan qurilgan bo'lsa, Yangi Buxoro va Eski Buxoro o'rtasidagi temiryo'l amir hisobidan qurildi. Ammo Yangi Buxoro-Termiz-Qarshi-G'uzor-Kitob temir yo'llarining qurilishi uchun tadbirkorlarning xususiy mablag'lardan foydalanishga to'g'ri keldi.

Bu sohada 3 mln 122 ming so'mlik 31 ming 220 dona aksiya chiqarilib,ular quydagicha taqsimlandi.1 mln so'mlik 10 ming dona aksiya Amir Olimxonga, 1

¹ Rashidov U, Rashidov O' Buxoroning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tarixidan (1900-1925y.y). Buxoro.: Buxoro 2013, -B. 10.

² Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B. 8.

mln 078 ming 500 so'mlik 10.785 aksiya rus temir yo'l injineri A.N.Kavolevskiyga, va 1 mln 043 ming 500 so'mlik 10.435 aksiya Rus-Osiyo bankiga berildi. 1914-yildan boshlab Yangi Buxoro-Termiz (Qarshi-G'uzor-Kitob shahobchasi bilan) temir yo'lining qurilishi boshlandi. Yo'l qurulishi bilan bog'liq qara ishlariga Qorategin bekligidan ishchilar olindi. Mardikorlarni ro'yxatga olish armiyaga safarbar etish darajasiga yetdi. Mahalliy hakamlar ma'lum pora asosida o'ziga to'q dehqonlarni ozod yetib butunlay nochar dehqon va hunarmandlarni ishga yubordi. Ko'plari kasallanib begona yurtlarda o'lib ketdi. Natijada 585kmli Buxoro Temir yo'li 1916-yili muddatidan oldin Termizgacha qurilib tugallandi. Natijada bu davrda Buxoro va Xivaning Rossiya bilan aloqalari kuchaydi.¹ Bu yo'l Qarshi, Shahrisabz, Kitob va G'uzor shaharlarini ham bog'ladi. Buxoro temir yo'lining qurib tugallanishi bilan XIX asr oxiri XX asr boshlarida harbiy strategik ahamiyati uchun qurilgan qoplamli arava yo'llari Samarqand-Termiz-Cho'bak-Ko'lob va Farg'ona-Pomir yo'llari ham Temir yo'l bakatlari bilan bog'lanib savdo tovarlarini o'tkazish qobiliyati 2-3 marotoba oshdi. XIX asrning 50-yillaridan keyin O'rta Osiyoga temir, mis va temir buyumlar keltirish ko'paydi.² Termiz va Chorjo'y temir yo'l bekatlariniqurulishi bilan Amudaryo flotiliyasining savdo faoliyati ham kengaydi. Natijada Tovar pul munosabatlari ancha rivojlangan aholi manzillarida va shaharlar vujudga keldi. Bular Yangi Buxoro(Kogon) Eski Buxoro, Chorjo'y, Qiziltepa, Karmina, Qarshi, Kalif, Termiz, G'uzor va Kitob shaharlaridir. Amirlik iqtisodiyotida kapitalistik alomatlar ko'rina boshlangach davlat va shaxsiy banklarga bo'lgan ehtiyoj sezila boshlandi. Amirlik iqtisodiyotida kapitalistik alomatlar ko'rina boshlagach davlat va shaxsiy banklarga bo'lgan ehtiyoj sezila boshlandi. 1894-yil Yangi Buxoroda (Kogon) birinchi bo'lib Davlat banki ochildi. Keyinroq to 1917-yilgacha yana 7ta xususiy bank faoliyat ko'rsata boshladi. Ular quyidagilardan iborat edi: "Rus Osiyo" banki, "Azov-Don" banki, "Sibir savdo" banki, "Rossiya tashqi savdo" banki,

¹ Shodiyev.J.M. Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi. T. 2010. –B. 51.

² Barakayev J, Haydarov Y. Buxoro tarixi. T. O'qituvchi. 1991. –B. 111.

“Moskva-Hisob” banki va “Qo’shma” banklar shular jumlasidan edi. 1915-yilgi ma’lumotlarga qaraganda bu banklarning kapital mablag’ 20,5mln so’mni tashkil etgan. Bu banklarda va ularning filiallari Eski va Yangi Buxoroda, Qarshi, Karki, Kushka va Termizda faoliyat ko’rsatgan¹. Mazkur banklarning eksport-import uchun beriladigan kreditlari yiliga 40 mln so’mni tashkil etgan. Rossiyaning Buxoro amirligidagi banklari Buxoro savdo-sanoat tarmoqlari egallaridan 1915-yil 1-yanvar ma’lumotlariga qaraganda 206 kishini o’z atrofida mijoz sifatida to’plashga muvofiq bo’ldi. Bular orasidan yirik mahalliy burjuaziya vakillari (kapitalistlar) yetishib chiqdi. Ulardan Xo’jayevlar (yillik savdo aylanmasi 1mln so’m), Mirkalonovlar ularning 20 ta ijaraga olingan va 11 ta shaxsiy zavodlari bor edi. Qorako’l teri bilan savdo qiladigan Arabovlar, Amir Olimxonning o’zi Rossiya bankida 27 mln so’m oltin miqdoridagi puli 7mln oltin miqdoridagi puli xususiy banklarda saqlangan va katta daromad olib turgan.

Amirlikda fabrika va zavodlar, aksionerlik jamiyatlari, bank, savdo muassasalari tez vujudga keldi. Rossiyadan Buxoroga tovar mahsulotlarini jo’natuvchi monopolistik qo’shma banklar tashkil topdi. Bu banklar o’z o’rnida yirik firmalar va savdo uylarining paydo bo’lishiga olib keldi. Tez orada Buxoro amirligida katta rus aksiyadorlari, ya’ni mulk egalari paydo bo’la boshladi. Buxoro amirligida aksionerlik jamiyatlari Turkiston general-gubernatorining rozilgisiz tuzilmagan. 1886-yildan boshlab Rossiya imperiyasining Buxoroda ish yuritgan siyosiy agentligi zimmasiga amirlikning Rossiya bilan aloqalarini yo’lga qo’yish va rus fuqarolari manfaatlarini himoya qilish vakolati berilgan edi. XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida chor Rossiyasi bilan uning yarim mustamlakasi hisoblangan Buxoro amirligi o’rtasida savdo iqtisodiy va diplomatik munosabatlar o’ziga xos ravishda sezilarli darajada rivojlandi.

¹ Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B. 10

Olimxon davrida Buxoro dunyoda qorako'l savdosi bo'yicha 3-o'rinda turgan. Mirsalikovlar, Mansurovlar ham eng katta kapitalistlardan edilar. XIX asr oxirlarigacha Buxoroda texnik jihatdan mutaxassislar yo'qligi sababli hunarmandchilik ishlab chiqarishi past darajada edi. Fabrika va zavodlar deyarli yo'q edi. Lekin 1905-yilda kelib amirlikda 9 ta paxta tozolah zavodi mavjud bo'lib 2mln 500 ming pud paxtani qayta ishlar edi. Birinchi jahon urushi arafasida esa amirlik hududida 50 dan ortiq korxona mavjud bo'lib shundan 26 tasi paxta tozalash zavodi edi. Ularning ham asosiy qismi amirlikning rus shaharlarida joylashtirildi. Masalan: Kogonda 15 ta paxta tozalash, yog' zavodi vat emir yo'l ustaxonasi, Chorjo'yda 10 da zavod va Amudaryo flotiliyasi mavjud edi. Buxorodan bu davrda Nijegorod yarmarkasiga mahsulot etilgan. Umumiy mahsulot hajmining 60% shu yarmarkaga etilgan.¹ Sanoat korxonasi kamligi sababli ishchilar sinfi ham oz sonli edi. Ularning soni bor yo'g'i 3,5 ming kishi bo'lib amirlik aholisining 0,2% tashkil qilar edi. Buxoro temir yo'li qurilishi munosabati bilan mavsumiy ishga qabul qilinganlar hisobidan ishchilar soni 7ming kishini tashkil etardi. Chor Rossiyasi Buxoro hududini geologik jihatdan ham o'rganib chiqdi. Sharqiy Buxoroda o'tkazilgan geologik tekshirishlar natijasida Darvoz bekligi hududidan Panj, Yaxsuv, Vaxsh vodiylaridan oltin, Darvoz va Hisor beklilari hududidan mis vat emir ruda, kaliy va Sherobodda oltin gugurt, Darband va Hisordan marmar, Boysun, Hisor va Qo'rg'ontepadan ko'mir va neft zapislari topildi. Lekin texnik qoloqlik tufayli bu foydali qazilmalaridan amirlikning o'zi foydalanish hech mumkin emas edi. Rossiya sanoatchilari esa bu serxarajat tarmoqqa mablag' sarflashdan ko'ra tayor xom ashyoni (paxta, qorako'l teri, ipak va hakoza) tashib olib kelishni afzal ko'rardi. Kapitalistik munosabatlarning kirib kela boshlashi bilan savdo va hunarmandchilik ham jonlandi. Amirlik poytaxti Buxora shahri eng katta savdo markaziga aylandi. Sharda aholi soni ham ko'payib 1920-yil ma'lumatlariga qaraganda 150ming kishi yashagan. Buxoro bozori butun

¹ Barakayev J, Haydarov Y. Buxoro tarixi. T. O'qituvchi. 1991. –B. 110-111

sharqda mashhur edi. Bozorning to'kinsochinligini, unda Shanxay, Rangun, Hindiston va Yevropa tovarlari bilan toshganligidan bilsa bo'ladi. O.Glovsaskiyning ma'lumotlariga qaraganda Eski Buxoroning yillik savdo aylanmasi 20 mln so'mni tashkil etgan. Amirlikning barcha shaharlaridan Buxoroga qarab maxsus ot tuyalar xizmat qilgan. Faqat Qarshi shahrida 6000 tuya yuk tashish uchun xizmat qilgan. Buxoroda ichki savdo uchun sharqona qurilgan ikki qavatli karvon saroylardan foydalanilgan. Birinchi qavatda olib kelingan savdo mollari va ot aravalar joylashtirilgan, ikkinchi qavatida tijoratchilar yashagan. Buxoro shahrida savdogarlar uchun mo'ljallangan karvan saroylar soni 38 ta bo'lib shuning 10 tasi amirga tegishli bo'lgan.¹ Amir o'ziga tegishli karvonsaroylarni ijaraga berib qo'yib katta-kichikligiga qarab yiliga 100 tilladan-300 tillagacha (420so'mdan-1260so'mgacha) ijara puli olgan. Amirlik tashqi savdosining asosiy qismi Rossiya to'g'ri kelgan mamlakatning tashqi savdo aylanmasi 1913-yilda 75mln so'mga teng. Eksportning asosiy qismini paxta, jun, ipak, qorako'l teri, importda chinni, chit, metal buyumlar, choy va shaker tashkil etgan. XIX asrning 80-yillari oxirlarida kelib, ko'pgina sanoat korxonalari, zavod va fabrikalar qurila boshlandi.² Rossiya sanoati uchun texnik ekinlarga talab oshishi bilan amirlik hududi ham sug'oriladigan maydonlarning asosiy qismiga sanoat xomashyosi bo'lgan paxta ekiladigan bo'ldi. Umuman, amirlikda texnik ekinlar ekish foizi Rossiyaning ilg'or guberniyalaridan ham o'tib ketdi. Masalan: Zarafshon vohasida sug'oriladigan yerlarning 27.6% ga Qashqadaryo vohasida 12.5% Surxandaryo vohasida 13.7% texnik ekin ekilgan bo'lsa, Rossiyaning Pekov va Kiyev guberniyalarida texnik ekinlar(kanop) bor yo'g'i 13.3, 10.3% tashkil etar edi. Buxoro bozorining yana bir o'ziga xos sharqona tomoni issiq va sovuqdan himoya etilgan yopiq toq va timlarda amalga oshirilgan yopiq toq va timlarda amalga oshirilgan. Buxoro shahrida shunday yopiq bozorlardan 50 ta bo'lib har bir bozorda bir xil mahsulot sotilgan

¹ Rashidov U, Rashidov O' Buxoroning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tarixidan (1900-1925y.y). Buxoro.: Buxoro 2013, -B. 24.

² Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B. 8.

(masalan: Go'sht, don, pista, yog'och, kiyimbosh va hakoza). Buxoroda ayni bu davrda ham mevalari bilan mashhur. Va yana shuningdek otlari ham¹. Buxoro amirligida XX asr boshlarida ham ishlab chiqarilgan mahsulotlarning asosiy qismini hunarmand kasanachilar ishlab chiqargan. Lekin Buxoro bozorida kapitalistik mollarni ko'rib kelishi hunarmandchilik mahsulotlariga putur yetkazdi. Jumladan, Moskvadan olib kelingan chit Buxoroda to'kilgan bo'zga nisbatan arzon va chidamli edi. Yoki Buxoroda kiyish odat bo'lib qolgan charm oyoq kiyimi (Kavsh)ga nisbatan Rossiyadan olib kelgan yengil va chidamli rezina kalish raqobatda yutib chiqdi². Lekin ba'zi hunarmandchilik mollariga talab kuchaydi. Ayniqsa gilam to'qish, qorako'l teri oshlash va turli kiyim bosh tayorlashga talab keskin o'sdi. Sababli bu tovarlar Rossiya bozori uchun zarur edi. Rossiya tovarlarini yetkazish qiyin bo'lgan, amirlikning Sharqiy tog'li hududlarida ham hunarmandchilik o'z xususiyati va salmog'ini saqlab qoldi. Poytaxtga yaqin tumanlarda, ya'ni G'ijduvon, Vobkent hunarmandlarining o'zlariga tegishli shaxsiy yellari ham bo'lib u yerlarga o'z ixtisosidagi hunarmandchilik tovarlarini tayorlash uchun ekin ekkan. Ya'ni paxta, ipak qurti uchun tutzorlar, molar uchun beda ekib so'ng shularni qayta ishlagan. Ba'zi hollarda dehqonlar ham hunarmandchilik bilan shug'ullanib bo'z, shoyi, charmgarlik bilan oilaviy shug'ullangan. Shu tariqa 1914-yilga kelib Buxoroda 100 ming pud ipak gazlama ishlab chiqarilgan bo'lib, uning narxi 1.5mln so'mga teng bo'lgan yoki O'rta Osiyoda yetishtiriladigan ipak gazlamani 50% tashkil etgan. Shu yillar ichida Buxoro Rossiyaga 100ming so'mlik gilam to'kib sotgan. Shuningdek Buxoro bozorlarida tulporlar ahamiyati katta bo'lib, asosan Rossiya bozorlarida yuborildi¹. 1917-yi arafasida Buxoro amirligida hunarmandlarning umumiy soni 60 mingtagacha yetgan, shuning 42% Buxoro shahriga to'g'ri kelgan². Aksariyat hollarda hunarmandchilik oilaviy tarzda rivojlangan. Usta va shogirdlik an'analari asosida og'ir mehnat qilingan. Ayrim

¹ Amir Said Olimxon. Buxoro xalqining hasratli tarixi. T. "Fan" nashriyot. 1991. –B.18.

² Rashidov U, Rashidov O' Buxoroning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tarixidan (1900-1925y.y). Buxoro.: Buxoro 2013, -B.24.

hollarda eksplatasiyadan foydalanilgan. Amirlikning yarim mustamlaka sharoitda eski shaharlar Buxoro, Karmina, Qarshi va Chorjo'y shaharlari kapitalistik va savdo-hunarmandchilik korxonalari qurulishi hisobidan kengaytirildi. Shu bilan bir qatorda bir qancha temiryo'l stansiyalari va yangi rus shaharlari: Yangi Buxoro, Yangi Chorjo'y va boshqa rus manzillari vujudga kelgan. 1917-yilgi ma'lumotlarga qaraganda amirlikning rus shaharlarida 50 ming kishi yashagan. Sharqiy Buxoroda Saroy shaharchasi yirik kapitalistik port sifatida Amudaryo bo'yida shakillandi. 1913-yilgi ma'lumotga qaraganda uning mahaliy aholisi 3ming kishini, ruslar esa 200 kishini tashkil etgan. Saroyda Rossiyaning ikkita transport jamiyati: "восточного" va "Кавказ и Меркурий" faoliyat ko'rsatib ular yuk tashish bilan shug'ullangan¹. Mazkur jamiyat aravalari bilan tog'li hududlardan Amudaryo bo'yidagi Saroy shaharchasiga har yili 800-900ming so'mlik paxta, g'alla, jun toshib keltirilgan. Shunday qilib Buxoro amirligida Rossiya talablari asosida paxtachilik rivojlanib zavodlar vujudga keldi. Tovar-pul munosabatlarining o'sishi bilan milliy burjuaziya shakillanib bordi. Chor Rossiya amirlikni faqat iqtisodiy jihatdan emas balki siyosiy jihatdan ham kuchli nazorat ostida saqladi. XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida chor Rossiyasi bilan uning yarim mustamlakasi hisoblangan Buxoro amirligi o'rtasida savdo iqtisodiy va diplomatik munosabatlar o'ziga xos ravishda sezilarli darajada rivojlandi. Buning uchun ikki davlat o'rtasida o'zaro tuzilib, imzolangan quyidagi shartnomalarning ahamiyati katta bo'ldi: 1868 yil 23 iyunda "Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasidagi o'zaro tinchlik shartnoma"si hamda 1873 yil 23 sentabrda tuzilgan «Rossiya - Buxoro o'rtasidagi do'stlik haqidagi shartnoma»², 1889-yil 25-iyunda "O'tkir ichimlik savdosini boshqarish qoidalari" va 1889-yil 25-iyudda "Buxoro xonligida o'tkir ichimliklarni sotish joylari, ularning turi va yangi shaxobchalarini tashkil qilish tartibini belgilash haqidagi" shuningdek, 1893-yil 15- dekabrda Turkiston

¹ Rashidov U, Rashidov O' Buxoroning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tarixidan (1900-1925y.y). Buxoro.: Buxoro 2013, -B.26.

² Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B.6.

General - gubernatorining “Buxoro xonligida vino ishlab chiqarish qoidalarini to’g’risida”gi farmoni, 1896-yil 24-fevralda “Buxoro xonligidagi oltin konlarini monopoliya qilish orqali qazib chiqarishni yo’lga ko’yish to’g’risidagi qoidalar”, 1916-yilda 1-oktabrda jo’natilgan spirt, aroq, vino, pivo va boshqa o’tkir ichimliklarni temir yo’l stanstiyalarda qabul qilib olish, yuklarni stanstiyalarda saqlash va sotishni yo’lga qo’yish to’g’risidagi qoidalar, 1920-yil 6- noyabrda “Buxorodagi sobiq rus manzilgohlari haqidagi muvaqqat shartnoma”si, 1921-yil 4-martda “RSFSR bilan BXSr o’rtasidagi ittifoq shartnoma”si hamda 1921-yil 25-sentabrda imzolangan “Rossiya, Buxoro va Xorazm o’rtasida Amudaryo flotiliyasi haqida”gi bitimlar shular jumlasiga kiradi.¹ Dastlabki 1868-yil 23-iyunda “Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o’rtasidagi o’zaro tinchlik shartnoma”sida Buxoro amirligi Xo’jand, O’ratepa kabi ko’pgina hududlaridan mahrum bo’ldi. Ammo amir o’zining ba’zi huquqlarini saqlab qolishga erishdi. 1873-yil 23-sentabrda tuzilgan “Rossiya - Buxoro o’rgasidagi do’stlik haqidagi” shartnomasida Rossiya bilan Buxoro o’rtasidagi chegara chizig’ining o’zgarmasligi, ikkala davlat hukumati o’z hududlarida savdo-sotiqni tashkil qilishni ta’minlashi, Rossiya fuqarolari huquqlariga alohida e’tibor berilishi kabi masalalar yoritilgan². Masalan, 1873-yilgi shartnomaning to’rtinchi moddasida yozilishicha, Amudaryoning Buxoro davlatiga tegishli sohillarida rus fuqarolari omborxona va bandargohlar qurish huquqiga ega ekanligi, kurilgan ombor va Bandargohlarni muhofaza qilish Buxoro hukumati zimmasida ekanligi ko’rsatilgan. Shartnomaning sakkizinchi moddasida: “Ruslar zarur hollarda Buxoro amirligi shaharlarida tovarlarni saqlashga haqlidirlar” - deb belgilab qo’yilgan. Do’stlik shartnomasining o’n birinchi moddasida yozilishicha, ruslar Buxoro aholisi orasida shariat talablari asosida ish va kasb bilan shug’ullanishlari mumkin bo’lgan. Xuddi shu kabi buxoroliklar ham rus yerlarida Rossiya qonunlari ijozat bergan qoida va talablar

¹ Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B. 7.

² Ko’rsatilgan asar. -B.8.

asosida faoliyat yuritishlari mumkin deyilgan. O'n ikkinchi moddada esa, ruslar amirlik hududida xususiy mulkka ega bo'lishga haklidirlar, deb yozilgan va bu mulklardan Buxoro fuqarolari bilan bir xil xiroj olinadi, deb belgilangan. Turkiston general-gubernatori tomonidan 1888-yil 23-iyunda imzolangan shartnomaning 4-, 8-, 11 - va 12-moddalari asosida, sakkiz moddani o'z ichiga oluvchi "1873-yil 23-sentabrda tuzilgan do'stlik shartnomasiga qo'shimcha qoida"lar ishlab chiqildi. Ushbu qoidalar mustamlakachilikka xos bo'lgan va Rossiya manfaatlarini ko'zlab yuritilishi lozim bo'lgan moddalar hisoblanadi. Buning isboti sifatida qoidaning birinchi moddasiga e'tibor berilsa, ya'ni Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasida 1873-yil 23- sentabrda tuzilgan do'stlik shartnomasining 4, 8, 11 va 12-bandlariga qo'shimcha sifatida xonlik hududida yashayotgan rus fuqarolariga amirlik hududida yashashi uchun yer, savdo mollari uchun omborxonalar, sanoat korxonalari va bandargohlar qurishi, imoratlar va do'konlar qurishlari uchun Buxoro hukumati bilan kelishgan holda yer ajratilishi kabi shartlar ko'rsatilgan¹. Mazkur hujjatning beshinchi moddasiga binoan har bir kishiga omborxona va ishlab chiqaruvchi korxona qurishi uchun 750-1500 kv. sajen, uy joy qurish uchun 300-750 kv. sajen. bozor atrofida do'konlar qurish uchun 5-15 kv. sajen ajratish ko'zda tutilgan. Qo'shimcha qoidalarning yettinchi va sakkizinchi moddalarida esa, Chorjo'y temir yo'li va Amudaryoning shu hududiga qurilgan kema pristani, Yangi Buxoro temir yo'l stanstiyasi va uning hududini nazorat qilish to'liq Turkiston general- gubernatorligi va Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agenti Nikolay Charkov zimmasiga yuklangan. Bu esa, Buxoro mulklarining ancha qismini Rossiya imperiyasi tasarrufiga o'tib ketishini ta'minlagan. Shuning uchun ham, Buxoro amiri ushbu ko'rsatilgan shartnoma shartlari ustidan da'vo qilmasligi to'g'risida Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agenti Nikolay Charkov bilan bosh zakotchi Ostonaqul inoq o'rtasida bayonnoma imzolanadi. Ushbu da'vo qilmaslik to'g'risidagi tuzilgan bayonnomaning o'zi 10 banddan iborat bo'lib,

¹ Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B. 8.

unda temir yo'llardan foydalanish masalasi siyosiy agentlik zimmasidagi vazifa bo'lib, amirning o'z mahsulotlarini chetga chiqarish huquqi muayyan darajada cheklangan, Chorjo'y va Buxoro temir yo'l stanstiyalari atrofidagi xo'jalik manzilgohlarini obodonlashtirish va ularni boshqarish, sanoat korxonalari, do'konlar va turar joy binolari qurish to'g'risidagi masalalar berilgan. Bu bilan amirlik huquqlari cheklanib, siyosiy agentlikning mavqei kengaytirilgan. Har bir davlatning iqtisodiy yuksalishi, uning xalqaro savdo-sotiqdagi ishtiroki va ishlab chiqaradigan mahsuloti bilan belgilanadi. Buxoro hududida XIX asrning ikkinchi yarmida shimoli hududlarda Rossiyaning ta'siri oshib ketgan.¹ Buxoro amirligida XIX asrning 80-yillari oxiriga kelib, ko'pgina sanoat korxonalari, zavod va fabrikalar qurilgan². Tashkil topgan har bir korxona o'zining boshqaruv uslubiga ega bo'lganidek, yarim mustamlaka hisoblangan amirlik hududidagi korxonalarni boshqarish, mahsulot ishlab chiqarish va ularni sotish qoidalari Turkiston general-gubernatori tomonidan ishlab chiqilgan va qat'iy nazorat qilingan. Masalan, bunday qoidalarga 1889-yil 25-iyunda "O'tkir ichimlik savdosini boshqarish qoidalari" va oradan bir oy o'tab, "Buxoro xonligida o'tkir ichimliklarni sotish joylari, ularning turi va yangi shahobchalarini tashkil qilish tartibini belgilash haqida"gi hamda 1893-yil 15-dekabrda Turkiston general-gubernatorining "Buxoro xonligida vino ishlab chiqarish" qoidalari to'g'risidagi farmonlari shular jumlasidandir. Turkiston general-gubernatori tomonidan belgilangan o'tkir ichimliklarni sotish shahobchalarining soni, ochilgan savdo shahobchalaridan foydalanish uchun ruxsat berish to'g'risidagi qoidalari 10 moddadan iborat bo'lib, unga ko'ra, Buxoro amirligi va Rossiya hukumati tomonidan rus fuqarolariga xonlik chegaralarida savdo shahobchalarini ochish, temir yo'l bekatlarida bufetlar tashkil qilish va ichimliklarni sotish qoidalari berilgan. Savdo shahobchalarining vujudga kelishi bilan uni boshqarish tartiblari ham ishlab chiqiladi. O'tkir

¹ Naimov.N. So'ngi hukumdor. –Buxoro. "Buxoro" nashriyoti . 2007.–B.5.

² Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B. 8.

ichimliklar savdosini boshqarishda yuqoridagi shartlardan kelib chiqib, 15 bandni¹ o'z ichiga olgan qoida ham kuchga kirdi. Qoidaning ba'zi moddalari- ga to'xtalib o'tmoqchimiz. Masalan, qoidaning birinchi moddasiga ko'ra, Rossiya imperiyasi va Buxoro xoni o'rtasidagi 1873-yil 23-sentabrda tuzilgan kelishuvga ko'ra, Buxoro amirligida o'tkir ichimliklar savdosi bilan shug'ullanishga faqat ruxsat berilgan joylarga do'konlar qurishlari mumkin bo'lgan². Kelishuv qoidasining ikkinchi moddasida o'tkir ichimliklar savdosi bilan shug'ullanishi uchun faqat quyidagi hududlarga ruxsat berilgan: a) amirlik chegaralaridagi yangi rus manzilgohlariga, masalan, Yangi Buxoro, Chorjo'y, Termiz va boshqalarga; b) barcha temir yo'l stanstiyalardagi bufetlarga; v) xonlikdagi mavjud rus manzilgohlari- dagi harbiy qismlar oldidagi oziq-ovqat do'konlariga. Bu qoidalarga asosan o'tkir ichimliklar savdosi bilan shug'ullanish uchun faqat rus fuqarolariga ruxsat berilgan, mahalliy aholiga qaysi dinga e'tiqod qilishidan qat'iy nazar, spirtli ichimliklar savdosi bilan shug'ullanishlari mutlaqo man- qilingan. Rossiya - Buxoro savdo aloqalariga taalluqli yana bir shartnoma 1893- yil 15-dekabrda imzolangan. U «Buxoro xonligida vino ishlab chiqarish qoidalari» deb atalib, Turkiston general-gubernatori va Buxoro hukumati tomonidan imzolangan. Bundan ko'zlangan maqsad tabiiy sharoiti va iqlimi uzumchilikga mos keladigan Buxoro vohasida vino ishlab chiqarish va uni butun Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksport qilishdan iborat edi. Buxoro amirligi tabiiy boyliklarga boy hudud. Ammo XIX asr oxirlarigacha boyliklarni qayta qazib olish va qayta ishlab chiqaradigan korxonalarning yo'qligi sababli, Turkiston general-gubernatori Vrevskiy 1896-yil 24-fevralda Buxoro amirligida- gi oltin konlarini monopoliya qilish orqali qazib chiqarishni yo'lga qo'yish to'g'risida 40 banddan iborat qoida ishlab chiqadi. Shu qoidaga binoan Buxoroda 1896-yildan to 1917-yilgacha oltin qazib chiqarish huquqi 36 ta konsessionlarning qo'lida bo'lgan. Endi sovet Rossiyasi bilan Buxoro Xalq

¹Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B. 8.

² Ko'rsatilgan asar. -B. 9.

Sovet Respublikasi o'rtasida tuzilgan shartnomalarga umumiy tarzda to'xtalamiz. 1920-yil 2-sentabrda amir Olimxon taxtdan ag'darilgandan keyin, Lenin o'zining ishonchli vakili V.Kuybishevni Buxoroga yubordi. U 1920-yil 14-sentabrda Buxoro Respublikasi hukumatining boshlig'i Fayzulla Xo'jayevga RSFSRning yo'lig'ini topshirdi. Shu kuni Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi, Butun Buxoro Inqilobiy Qo'mitasi va Buxoro Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining umumiy yig'ilishida 9 kishidan iborat Butun Buxoro Inqilobiy Qo'mitasi va 11 kishidan iborat Xalq Nozirlar Sho'rosi tashkil etildi. Shu tariqa, Buxoroda siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritish borasida bir qator amaliy tadbirlar ishlab chiqildi. Bolsheviklar oldida turgan navbatdagi vazifa respublika iqtisodiyotini ham markazdan turib boshqarish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda sovet andozasidan foydalanish, xom-ashyo va tabiiy boyliklarni Buxorodan markazga tashib ketishni ta'minlashdan iborat edi. Bolsheviklar tomonidan tashkil qilingan qator tashkilot va tuzilmalar BXSRda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, respublikadan xom-ashyoni olib chiqib ketishda rahnamolik qildi. 1920-yil 6-noyabrda Toshkentda RSFSR bilan BXSR o'rtasida shartnoma tuzilgan¹. U ba'zi tarixiy adabiyotlarda «Buxorodagi sobiq rus manzilgohlari haqidagi muvaqqat shartnoma» deb ham yuritiladi. 10 moddadan iborat bo'lgan bu shartnomani BXSRning Rossiyadagi favqulodda missiyasi rahbari va RSFSRning Buxorodagi muxtor vakili V.Kuybishev imzolagan. Shartnomaga ko'ra, sobiq amirlik hududidagi barcha rus manzilgohlari, ulardagi Rossiyaga qarashli barcha ko'chmas mulk (zavod, fabrika va b.), amir hukumati tomonidan eski rus hukumati yoki xususiy shaxs va tashkilotlarga berilgan butun hudud BXSRga qaytariladi. Shartnomaga asosan ruslar yashaydigan Yangi Buxoro (Kogon), Yangi Chorjo'y, Yangi Termiz va Yangi Karki shaharlarida rus sovetlari hokimiyati saqlanib qolishi belgilangan edi. Bu shartnoma RSFSR XKS va Butun Rossiya MIKning Turkiston ishlari bo'yicha komissiyasi (1919- yil oktyabrda tashkil qilingan)

¹ Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B. 11.

vositachiligi va homiyligida tuzilgan bo'lib, ular 1920-yil 6-noyabrda Turkiston komissiyasi va Buxoro markaziy Revkomi tomonidan tasdiqlangach, o'sha yili 15-noyabrdan kuchga kirgan. 1921-yil 4-martda Moskvada "RSFSR bilan BXSR o'rtasida ittifoq shartnomasi"si tuziladi. Shartnomani RSFSR nomidan tashqi ishlar xalq komissari G.Chicherin va uning o'rinbosari L.Karaxan, BXSR nomidan Buxoroning Rossiyadagi favqulodda missiyasi vakillari Mirzo Muhiddin Mansurov (rais), Rajab Muxamedov va Rahmat Rafiq Abdullabekov (missiya a'zolari) imzolashgan. Ittifoq shartnomasi 17 moddadan iborat bo'lib, unda BXSR bilan RSFSR o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar ilk marta batafsil ko'rib chiqilgan. Ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni o'zaro hamkorlik darajasiga ko'tarish muammolari tahlil qilingan. Ittifoq shartnomasining 2, 5 va 7-moddalari asosida yana qo'shimcha uchta hujjat imzolangan. Ularning birinchisi 1921-yil 4-martda Moskvada tuzilgan harbiy-siyosiy bitim (3 moddadan iborat) bo'lib, u imzolanishi bilan muvaqqat siyosiy-harbiy bitim bekor qilingan. Mazkur bitim Buxoro hududida Turkiston fronti qo'shinlari, ya'ni sovet Rossiya harbiy kuchlari turishini «qonuniy» jihatdan asoslab berdi. Ushbu bitim loyihalarining O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivida saqlanib qolgan nusxalariga qaraganda, RSFSR tomoni dastlab BXSR hududini harbiy jihatdan butunlay ishg'ol qilishga harakat qilgan. Biroq Buxoro siyosiy arboblarning qat'iy noroziliklari tufayli, bitim matni ancha yumshatilgan holda qabul qilingan. Qo'shimcha hujjatlarning ikkinchisi alohida iqtisodiy bitim bo'lib, mazkur hujjat 1921-yil 4-martda Moskvada imzolanganligi ma'lum. Shuningdek Buxoro Rossiya bilan savdo aloqalarni kuchaytirish maqsadida 1892-yil va 1906-yillarda Rossiya mamlakatiga ikki marta elchi yuborildi¹. Qo'shimcha hujjatlarning uchinchisi Amudaryo flotiliyasi haqidagi bitim bo'lib, u 1921-yil 25-sentabrda Rossiya, Buxoro va Xorazm o'rtasida tuzilgan. Unda Rossiyaga qarashli mazkur flotiliya BXSR va XXSR ixtiyoriga berish masalasi ko'rilgan. RSFSR Tashqi ishlar xalq komissarligining Turkistondagi vakili

¹ Naimov.N. So'ngi hukmdor. –Buxoro. "Buxoro" nashriyoti –B.8.

M.Vereshchagin (RSFSR), Ezro Xaxamov, Muhamadjon Devlikamov (BXSR), Fayzirahmon Voisov (XXSR) tomonidan imzolangan va 9 moddadan iborat bitimda Amudaryo flotiliyasi kemalarini taqsimlash bo'yicha xalqaro komitet komissiyasi (uning raisi qilib BXSR iqtisodiyot nozirligi vakili tayinlangan) tuzilib, u Chorjo'y shahrida faoliyat ko'rsatishi tasdiqlangan. Yuqorida tilga olingan hujjatlar asosan sovet Rossiyasi manfaatlarini himoya qilgan. Gap shundaki, Chor Rossiyasi shartnomalaridagi mustamlakachilik siyosati sovet Rossiyasi shartnomalarida ham o'z aksini topgan. Darhaqiqat, har ikki davrda ham, Rossiya mustamlakachiligi mazmuni jihatdan har xil ko'rinishga ega bo'lsa-da, iqtisodiy va siyosiy mohiyati bir xil bo'ldi.

1.2. Buxoroda Rossiya sanoat korxonalarning qurilishi, savdo aloqalarida eksport-import tovarlari

XX asr boshlariga kelib, Rossiyaning sanoat ishbilarmon doiralari Buxoro amirligida sanoatning turli tarmoqlarini rivojlanishida muhim o'ringa ega bo'lgan. Mustamlakachilarning bu sohadagi faoliyati natijasida amirlik markazida va shaharlarida sanoat korxonalari vujudga keldi. 1867-yili Turkiston General - gubernatorligi tashkil etilgandan keyin general gubernator K.P.Kaufman rus va chet el sanoatchilari uchun qulay sharoit yaratib berishga harakat qildi. U o'lkaga kelgan savdogarlar, sanoatchilar tadbirkorlar va ish yurituvchilarni har jihatdan qo'llab-quvatladi. Ko'rilgan tadbirlar natijasida Buxoro amirligida Yevropa tipidagi dastlabki korxonalar quriladi. XIX asr oxirigacha Buxoroda texnik jihatdan mutaxasislarning yo'qligi sababli, ishlab chiqarish past darajada bo'lgan. Buxoro amirligida XX asr boshlarida ham ishlab chiqarilgan mahsulotlarning asosiy qismini hunarmand kasanachilar ishlab chiqarilgan¹. Zavod va fabrikalar bo'lmagan. Lekin amirlik Rossiya mustamlakasiga aylangach, 1905-yilgacha amirlikda 9 ta paxta tozalash zavodi qurildi. Ushbu zavodlar yiliga 2 mln 500 ming pud paxtani qayta ishlar edi. Birinchi jahon urushi arafasida amirlik hududida 50 dan ortiq korxona mavjud bo'lib, shundan 26 tasi paxta tozalash zavodini tashkil qilgan. Ba'zi manbalarda esa o'lkada 35 ta paxta tozalash zavodlari borligi qayd etilgan. Ularning asosiy qismi amirlikdagi rus shaharlariga joylashtirilgan. Jumladan Kerki, Chorjo'y, Yangi Buxoro (Kogon), Termiz (Pattakesar) shaharlari shular jumlasidandir. Rossiya siyosiy agentining ma'lumotiga ko'ra, Termizda 1916-yilda 28 ta kichik sanoat korxonasi, Yangi Buxoro (Kogon)da 15 ta paxta tozalash, 5 ta yog' zavodi, Chorjo'yda 10 ta zavod va Amudaryo flotiliyasi mavjud edi. Buxoro amirligida temir yo'llarning qurilishi tashqi savdoni rivojlantirish- ga turtki bo'ladi. Buxoro amirligi uchun 1906-yilda ishga tushgan Toshkent - Orenburg temir yo'li Buxoro-Moskva-Peterburg bilan bo'lgan savdo munosabatlarida

¹ Rashidov U, Rashidov O' Buxoroning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tarixidan (1900-1925y.y). Buxoro.: Buxoro 2013, -B. 24.

muhim ahamiyatga ega edi. Amirlik hududiga rus kapitalining kirib kelishi bilan yirik mahalliy sanoatchi guruhlar ham paydo bo'la boshlaydi. Bunday yirik boylar Ubaydullo Xo'ja (Fayzullo Xo'jaevning otasi), Mirzo Muhiddin Mansurov, Mustafoxo'ja, Vadyaev, Kayupov, G'ofurxo'ja Mirjonov va boshqalardan iborat bo'lgan. Buxoro amirligida shuningdek zargarlik ham rivojlangan. Oltin va kumush madanlarni tozalash bo'yicha nom chiqargan edi¹. Yuqorida ta'kidlanganidek, rus sanoatchilari amirlikning rus manzilgohlari, aholi zich yashaydigan hududlari va temir yo'l bekatlari yaqinida o'z zavod va fabrikalarini joylashtirdi. Bu soxada xom-ashyo (paxta, jun, mol teri va qorako'l terilari) manbalari ham inobatga olingan. Buxoro amirligida rus va chet el kapitalining kirib kelishi va ko'payib borishi sanoat ishlab chiqarishning yangi turlarini paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Bu sohada Samarqand viloyatida ham paxta tozalash zavodlariga e'tibor kuchaytirildi. XIX asrda asosan Buxorodan Rossiyaga yuborilgan buyumlardan asosan 75%i paxta va ip gazlama buyumlari tashkil etgan.² 1886-yili Tinxachov tomonidan Kattaqo'rg'on uyezdining paxta ko'p ekiladigan Mitan qishlog'ida dastlabki paxta zavodi qurildi. Kattaqo'rg'on shahridan 30 chaqirim masofada joylashgan bu zavodga paxta xom ashyosi zavod atrofiga yaqin joylashgan qishloqlardan aravalarda tashib keltirilgan. O'rta Osiyoda temir yo'llarning qurilishi paxta tozalash zavodlari kurish imkoniyatini kengaytirdi. 1899-yili Kattaqo'rg'on shahri vokzali yaqinida injener L.O.Yugovich tomonidan bug' bilan ishlaydigan 4 ta paxta tozalash zavodi qurildi. 1888-yildan arava va tuyalar bilan Samarqandga tashib olib kelingan paxta, O'rta Osiyo temir yo'llari orqali Rossiyaga olib ketila boshlandi. Oqibatda paxtani tashib ketish keskin kuchaydi. Paxta zavodlarining quvvati oshib borishi natijasida, ko'plab chigit to'plana boshlandi. Ilgari qadrsiz bo'lgan hatto viloyatlarda o'tin sifatida foydalanilgan chigitdan 1890-yildan boshlab sanoat usulida yog' olishga kirishildi. O'lkada dastlabki yog' zavodi Yangi Buxoro (Kogon)da K.Drejeveskiy tomonidan qurilgan. Biroq chigit to'plash

¹ Rahmon Muiniy. "Ahmad Donish hayoti haqida". "Buxoro" nashriyoti.2007. –B.14.

² Barakayev J, Haydarov Y. Buxoro tarixi. T. O'qituvchi. 1991. –B. 109.

imkoniyati cheklanganligi, ayniqsa, mahalliy aholining g'ayridinlar tayyorlagan yog'ni iste'mol qilishni xohlamasliklari tufayli zavod to'xtab qoldi. O.Glovasiykiyning ma'lumotlariga qaraganda Eski Buxoroning yillik savdo aylanmasi 20 mln so'mni tashkil etgan². L.Xorvat tomonidan Samarqand viloyatining Chelak qishlog'ida, L.Yugovich tomonidan Kattaqo'rg'on shahrida qurilgan yog' zavodlari ham shu holga tushdi. Paxta zavodlari imkoni boricha temir yo'llar yaqinida qurilgan. Masalan, Samarqand viloyatidagi zavodlarning 8 tasi Samarqand uyezdida, 6 tasi Kattaqo'rg'on uyezdida, 6 tasi Xo'jand va 2 tasi Jizzax uyezdida joylashgan. 18 zavodning 7 tasi bug' bilan, 8 tasi suv kuchi bilan, 3 tasi ot va ho'kizlar yordamida harakatga keltirilgan. Har bir zavodning o'rtacha narxi 3000 rubldan 60000 rublgacha bo'lgan. 1904-yili 11-dekabrda Samarqand viloyati nazoratchi mexanigi taqdim etgan ma'lumotiga ko'ra, 5 yil ichida viloyatda zavodlar soni 4 taga ko'payib, jami 26 taga etdi. Samarqandda paxta zavodlardan tashqari, 22 ta vino, 2 ta pivo zavodi, qo'rg'oshin va shisha zavodlari, 4 ta yirik tegirmon, tipografiya ishlab turgan¹. Samarqand viloyati harbiy gubernatorining 1900-yilgi hisobotiga ko'ra Samarqandda jami zavod, fabrikalarning soni 87 ta bo'lib, shundan 22 tasi paxta tozalash zavodi bo'lgan. Viloyatda vinochilik yuqori darajada bo'lgan. Hisobotdagi ma'lumotlarga ko'ra, vinochilik ishi bilan yirik rus ishbilarmonlari Filatov, Ivanov, Proxorovski, Gladishev, Tolochikov, Dalnin, Abramov va boshqalar shug'ullanganlar. Choy qadoqlash bilan Gubkin va Vagau fabrikalari faoliyat ko'rsatgan. Buxoroda eng katta temir yo'l bekati hisoblangan Chorjo'yda esa, 10 dan ortiq zavod mavjud bo'lib, shundan, 4 tasi paxta tozalash zavodi, 1 tasi yog' zavodi, 1 ta jun ishlab chiqaradigan zavod bo'lgan. Qorako'l stanstiyasida 1 ta paxta tozalash zavodi, Qiziltepa stanstiyasida esa, Mirzo Muhiddin Mansurovga va polyak savdogari Sharipovning savdo uyiga tegishli bo'lgan paxta tozalash zavodlari, Eski Buxoroda Mustafo Xo'jayevga tegishli paxta tozalash zavodi mavjud edi.

¹Rashidov U, Rashidov O' Buxoroning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tarixidan (1900-1925y.y). Buxoro.: Buxoro 2013, -B. 23.

² Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B.25.

Karmanadagi 3 ta paxta tozalash zavodi Segelbaum va Dvoskina birlashgan savdo uyiga qarashli bo'lgan. Ziyovuddinda ham 2 ta paxta tozalash zavodi ishlab turgan. Amirlikning janubi viloyatlari va Amudaryo etaklarida ham zavodlar mavjud bo'lib, Kerkida 4 ta paxta tozalash zavodi faoliyat olib borgan. Bular Qayupov, G'ofurxo'ja Mirjonov, va Starsov - Buxoro hukumatiga tegishli bo'lgan. Termizdagi 3 ta paxta tozalash zavodi Rossiyalik injener A.G.Ananevga qarashli bo'lgan. G'arbiy Buxoroning aholi zich joylashgan hududlaridan biri – G'ijduvonda Jaloliddinov va Engalchevga tegishli 1 ta, Zirabuloqda esa 2 ta paxta tozalash zavodi ishlab turgan Yangi Buxoroda 12 ta paxta tozalash zavodi, 2 ta yog' zavodi, Baxtadze vino zavodi, tamaki va gugurt fabrikalari faoliyat ko'rsatgan. Rossiyaga chiqarilgan buyumlar orasida yigirilgan ip buyumlar paxtadan ko'proq asosiy o'rin egallagan. 8mln 473ming 879so'mni tashkil etgan¹. 1912-yil 21-fevralda Yangi Buxoroda yashagan M.G.Flaksman savdo va sanoat ministriligiga O'rta Osiyoda paxta tozalash va paxta yog'i ishlab chiqarish korxonalari aksiyadorlik jamiyatini tuzishga ruxsat so'rab murojaat qilgan. Turkiston general-gubernatori va harbiy ministrlar jamiyatining ustav loyihasini tasdiqlanishiga qarshi bo'lgan. Lekin savdo va sanoat moliya ministrilari ta'sirida va Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agentining xayrixohligi va tashqi ishlar ministrligining aralashuvi bilan 1913-yil 9 fevralda jamiyatning ustav loyihasi o'zgartirishlar kiritilgan holda tasdiqlandi². Unga ko'ra, Yangi Buxoroda paxta tozalash va paxta yog'i ishlab chiqarish korxonalari akstiyadorlik jamiyati tuzildi Shu bilan birga, jamiyatga faqat Buxoro amirligi xududlaridan chetda ish yuritmaslik, egalik qilib turgan 5344 kv. sajen yerdan boshqa ko'chmas mulk sotib olmaslik sharti qo'yildi va faqatgina egasining nomi ko'rsatilgan aksiyalarni chiqarishga ruxsat berildi. Natijada, qisqa vaqt ichida jamiyatning asosiy kapitali 600.000 rublni tashkil qilib, egasining nomi yozilgan 2400 aksiya chiqarildi. Har bir aksiyaning narxi

¹ Barakayev J, Haydarov Y. Buxoro tarixi. T. O'qituvchi. 1991. –B.108-109.

² Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B.25.

250 rubl bo'lgan. Jamiyat paxta tozalash va paxta yog'i ishlab chiqarish bilan cheklanmasdan balki, sovun ishlab chiqarish korxonalariga ega bo'lib, paxta savdosi bilan ham shug'ullangan. 1913-yilda qo'shimcha sarmoya jalb qilish maqsadida, M.Flaksman Osiyo bo'limi bosh shtabiga xat yuborib, egasining nomi ko'rsatilgan aksiyadan tashqari egalik qiluvchi aksiyalarni chiqarishga ruxsat so'ragan. Turkiston general-gubernatorining roziligini olgach, aksiyadorlik jamiyati Yangi Buxoroda 1917-yilga qadar faoliyat ko'rsatgan. Yangi Buxoroda yana bir yirik rus kapitalisti Levaning paxta tozalash zavodi ham faoliyat ko'rsatgan. Bulardan tashqari, xonlikda nafaqat paxta tozalash zavodi, balki, jun yuvish va tarash, pilladan shoyi, ip yigirish, charm mahsulotlari ishlab chiqarish, uzumdan vino olish, shoyi gazlamalar ishlab chiqaradigan korxonalar xam faoliyat ko'rsatgan. 1905-yilda g'o'za yanchish zavodlarining umumiy soni 9 taga yetgan bo'lsa, shundan 3 tasi Yangi Buxoro (Kogon)da joylashgan¹. Xulosa qilib shuni aytish lozimki, faoliyat ko'rsatgan mazkur zavod va fabrikalarning deyarli barchasi rus kapitalistlari uchun xizmat qilib, asosan xom ashyoni dastlabki ishlab berish bilan shug'ullangan. Uni tayyor mahsulotga aylantirish esa, Rossiyaning markaziy shaharlarida amalga oshirilgan. Lekin shunday bo'lsa-da, amirlik iqtisodiga rus kapitali va sanoatining kirib kelishi Buxoroning O'rta Osiyodagi yirik savdo markaziga aylanishini ta'minlagan. Buxoro amirligi mag'lub etilgach, Rossiya-Buxoro shartnomasiga ko'ra, imperiya amirlikning ichki boshqaruv tizimi va diniy ishlariga aralashmaslik majburiyatini oldi. Shunga ko'ra amirlik davlat boshqaruvi va uning tuzilishi asosan o'zgarmay qolgan edi. Ammo iqtisodiy, savdo, madaniy, maishiy sohalarda ancha o'zgarishlar yuz bera boshladi. Iqtisodiy sohada paxta yetishtirish oldingi o'ringa chiqdi. Paxta yetishtirish va uning xom ashyosini Rossiyaga jo'natish bo'yicha Buxoro Farg'ona viloyatidan keyin ikkinchi o'rinda turardi. Buxorodan Rossiyaga chiqarilgan mahsulotlarning 40%ini paxta tolasi tashkil qilar edi. Agar bosib olingunga

¹ Rashidov U, Rashidov O' Buxoroning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tarixidan (1900-1925y.y). Buxoro.: Buxoro 2013, -B. 26.

qadar Buxoro amirligi imperiya to'qimachilik markazlariga 50 pud paxta tolasijo'natgan bo'lsa, XX asrning boshlarida bu ko'rsatkich 1200 pudni tashkil qildi. Buxoro amirligida paxtachilikning rivojlanishini quyidagi raqamlardan bilib olish mumkin. 1913-yilda paxta maydonlari 66ming desyatinaga, 1916-yilda esa 111 ming 408 desyatinaga yetdi. Rossiya paxtadan tashqari qorako'l, jun, gilam, pilla va hakovzolar chiqarildi. Vasallikning dastlabki yillarida 30-40 ming dona qorako'l teri chiqarilgan bo'lsa, 1914-yilda esa bu 1.800ming donaga yetib, Rossiyaga chiqarilgan butun mahsulotlarning 42% tashkil qildi. Shuningdek, ko'p miqdorda jun, pilla, quruq, meva, mayiz kabi mahsulotlar chiqarilib, ularning miqdori 3 mln.306 ming so' bo'lgan bo'lsa, 1900-yilda Rossiyada Buxoroga 23 mln.700 so'm so'mlik, 1913-yilda esa 35mln 344 ming so'mlik mahsulotlar keltirildi. Ana shu miqdordagi mahsulotlarning hammasi Rossiya-Buxoro qo'shma vositachilik kontoralari va komersiya korxonalari tomonidan oldi-sotdi orqali bajarildi. Buxoroda to'rtta transport jamiyati ("Sharqiy jamiyat", "Aksionerlar jamiyati", "Gergard va Gey jamiyati", "Kavkaz va Merkuriy jamiyati")¹ va uchta sug'urta jamiyati ish olib borar edi. Ular Rossiyaning savdo-sanoat burjuaziyasi va Buxoro savdogarlariga xizmat qilardi. Buxoro mahaliy burjuaziyasi tovarlarni sotishda vositachili xizmatini bajarar edi. XX asr boshlarida amirlikda kapitalistik, ya'ni yollanma mehnatga asoslangan sanoat korxonalari vujudga keldi. 1905-yilda amirlikda 2mln 500 ming pud paxtani qayta ishlovchi 9 ta paxta tozalash zavodi mavjud edi. Birinchi jahon urushi arafasida Buxoroda 50 dan ortiq korxona bo'lib, ularning salkam 30 tasi paxta zavodlari edi. Ular ko'pincha amirlik hududining rus aholisi yashaydigan manzillarida qurilgan edi. Bolcheviklar bosqiniga qadar birgina Buxoroning Rossiya bilan savdo aloqalari ikki yuz ellik million frankni tashkil etgan. Mahalliy aholidan yetishib chiqqan ishchilar amirlikda faqat 0.2%ni tashkil etgan. Ishchilar nihoyatda qatiq sharoitda mehnat qilar va kun kechirardi. Ish haqi juda past, ish soatiga kuniga 12-14 soatga cho'zilar edi.

¹ Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B.26.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish bositalari juda past darajada bo'lgani sababli juda katta yer osti boyliklari foydalanilmay yotar edi. Kapitalizmning Buxoro amirligi iqtisodiy hayotga kirib kelishi 1894-yilda Yangi Buxoroda Davlat banki bo'limining ochilishiga sabab bo'ldi². 1915-yilda Davlat banklaridan tashqari xususiy banklar bo'limlari (Tashqi savdo uchun Rus banki, Rus-Osiyo hisob banki, Azov-Don kommersiya banki, Sibir savdo banki, Birlashgan va Volga-Kaspiy kommersiya banklari) ham ochildi. Rus-Osiyo banki o'z vakili temir yo'l muhandisi Kovalevskiy orqali Buxoro temir yo'lini qurish uchun 1912-yilda 34 ming desyatina yerni konsensiyaga oldi. Amirlikda paxtachilikning rivojlanishi qishloq xo'jalik rayonlarining ixtisosla -shuvini kuchaytirdi. Paxtachilikni bilan bir qatorda qorako'l qo'ylari boqish keng rivoj topdi va juda katta foyda berib turdi. Amirlikda paxtachilik va qorako'lchilikning rivojlanishi bozor bilan, savdo-so'dxo'rlik kapitali bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Buxoro amirligidagi sug'oriladigan yerlarning ancha qismi temir yo'l, telegraf liniyalari va rus aholisi uchun posileniyalari qurishga berib qo'yildi. 1900-yildan boshlab sug'oriladigan yerlardan 291799 desyatini rus kapitalistlari uchun konsensiyaga berildi. 1915-yilgi ma'lumotlarga qaraganda rus konsensiyalari Qo'rg'on-Tepadan 56ming desyatina, Qabodiondan 10 ming desyatina, Ayvondan 5 ming desyatina, Yaxsudan 50 ming desyatina sug'oriladigan yerni sotib olishgan. Rossiyaning birinchi jahon urushida (1914-1918) ishtiroki uning mustamlaka va yarim mustamlakalaridagi mehnatkashlarning ahvolini ya'nada og'irlashtirildi. Rossiya hukumati amirdan ko'proq xom-ashyo yetkazib berishni talab qildi. Shunga binoan 1915-yilda kelib paxta eksporti 1911-yilga nisbatan 46%, quruq meva 68%, jun eksportini 221%ga ko'paytirildi¹. Lekin birinchi jahon urushi va Rossiyadagi inqiloblar amirlikni tashqi dunyodan ajratib qo'yib uning mahsulot ishlab chiqarishga putur yetkazdi. Jumladan 1919-yilda ekiladigan paxta

¹ Rashidov U, Rashidov O' Buxoroning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tarixidan (1900-1925y.y). Buxoro.: Buxoro 2013, -B. 26.

² Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B.26.

maydoni 1913-yiga nisbatan 20%ga tushib, yetishtiradigan mahsulotlar narxi ham keskin pasayib ketdi. Masalan: 1917-yili 1 pud paxta 11 so'm sotilgan bo'lsa, 1919-yilda 1 so'm 80 tiyinga, 1 pud jun 6 so'mdan 2 so'mga, 1 dona qorako'l teri 7 so'mdan, 1 so'm 20 tiyinga tushib qoldi. Buxoro amirligining tashqi savdosi ham tanazulga yuz tutdi. Buxoro-Afg'oniston, Xitoy, Eron, Hindiston, Xiva va Yevropa hamda AQSH bilan savdo qilgan. Masalan: 1913-yili Buxoro Konstantinopol va Marsel bozorlarida 50ming pud mahsulot chiqargan. Germaniyaga qo'y terisi, Angliya, AQSH, Rossiyaga jun sotilgan. 1911-1913-yillarda (ming so'm hisobida) Buxoroning savdo balansi quydagicha jadval berilgan:

	Rossiya	Afg'oniston	Xiva	Xitoy	Eron	Hindiston	Yevropa va AQSH
Buxorodan chiqarilgan	31255	100	1035	-	200	500	2295
Buxoroga olib kelingan	35344	866	100	1900	300	800	100
Umumiy mol ayirboshlash	66599	916	1135	1900	500	1300	2395
Savdo balansi	4087	766	935	1900	100	300	2195

Shunday qilib XX asr boshlarida Buxoro amirligi past rivojlangan davlat sifatida

Osiyodagi eng qoloq yarim mustamlaka davlati bo'lib qolgan edi. Shuni alohida takidlab o'tish joizki, Rossiya Buxoro amirligini tugatishga, BXSRni tuzishga erishgandan so'ng ham o'zaro iqtisodiy aloqalar to'xtamadi va o'rnida davom etaverdi.

II.Bob XX asr boshi Buxoro-Rossiya munosabatlarining yangi bosqichga o'tilishi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

2.1. Buxoroda rus banklari, savdo uylarining tuzilishi va ularning Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalardagi roli

XIX asrning 90-yillariga kelib, Chor Rossiyasi korchalonlarining Buxorodagi manfaatli faoliyatlari ana kengaydi. Rossiyaning Buxorodagi mustamlakachilik siyosati uch tomonlama maqsadga ega edi. Birinchidan, amirlik hududlarini egallash, ikkinchidan, amirlikka Rossiyaning tayyor tovar mahsulotlari va rus kapitalini kiritish, uchinchidan, amirlikni rus sanoati uchun arzon xom-ashyo bazasiga aylantirish edi. Mana shuning uchun ham, amirlikda fabrika va zavodlar, aksionerlik jamiyatlari, bank, savdo muassasalari tez vujudga keldi. Rossiyadan Buxoroga tovar mahsulotlarini jo'natuvchi monopolistik qo'shma banklar tashkil topdi. Bu banklar o'z o'rnida yirik firmalar va savdo uylarining paydo bo'lishiga olib keldi. Tez orada Buxoro amirligida katta rus aksiyadorlari, ya'ni mulk egalari paydo bo'la boshladi. Buxoro amirligida aksionerlik jamiyatlari Turkiston general-gubernatorining rozilgisiz tuzilmagan. 1886-yildan boshlab Rossiya imperiyasining Buxoroda ish yuritgan siyosiy agentligi zimmasiga amirlikning Rossiya bilan aloqalarini yo'lga qo'yish va rus fuqarolari manfaatlarini himoya qilish vakolati berilgan edi¹. Siyosiy agentlikning vakolatiga siyosiy va iqtisodiy masalalarda amirga ta'sir ko'rsatish huquqi kirar edi. Shuningdek, Turkiston general-gubernatori Buxoro amirligida aksiyadorlar jamiyatini tashkil qilishda agentlikning fikrlarini e'tiborga olgan. Rus kapitalining amirlik iqtisodiyotiga kirib kelishi ilk bor 1889-yilda "K-Poznanskiy" aksiyadorlik jamiyatining faoliyati bilan boshlanadi. XIX asrning 80-yillarida "K-Poznanskiy ip-gazlama aksionerlik jamiyati" o'z faoliyatini

¹ Rashidov U, Rashidov O' Buxoroning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tarixidan (1900-1925y.y). Buxoro.: Buxoro 2013, -B. 27.

boshlab, katta hajmdagi paxta savdosi bilan shug'ullangan. Masalan, u 1890-1897 yillarda 1 mln. 120 ming pud paxtani sotib olgan. Shirkat 1905-yilda Buxoro va Xiva xonligi hududlaridagi o'ziga tegishli zavodlarda Xlopok (Paxta) aksionerlik jamiyati tuzilgan. 1909-1910 yillarga kelib, bu jamiyat paxta bo'yicha pul oboroti 11.5 mln. rublga etdi. Jamiyat dehqonlarga olinadigan hosil uchun oldindan pul bergan. Oldindan hosilga pul talab qilish odati "Bo'nak" deb yuritilgan¹. 1868-yilga kelib Buxoro bilan Rossiya o'rtasida imzolangan shartnomaga ko'ra soliq to'lash rus fuqarolaridan bekor qilingan. Lekin Rossiya savdogarlari savdo qilishlari uchun 2.5% soliq to'langan². Bo'nak bahor faslida tilxat olish orqali dehqon va yer egalariga berilgan. Buning evaziga dehqon va zamindor o'z yerini va biror mulkini garovga qo'ygan. Mana shu yo'l bilan Rossiya banklari mahalliy aholini o'zlariga qaram qilib olgan. 1900-yildan Vadyaev va R.Sh.Potelyaxovning firmalari ham Buxoro amirligida faoliyat ko'rsata boshlaydi. Vadyaev firmasi 11 ta xususiy, 20 ta ijaraga olingan paxta tozalash va yog' ishlab chiqaradigan zavodlarga ega bo'lgan. Buxoroda tashkil etilgan ularning yirik savdo guruhlari esa, tayyor paxta xomashyo mahsulotlarini Moskvaga jo'natish bilan shug'ullangan. Jumladan, Lure, Notkin, Shalman, Levin, Stalkin, Epifanov shuningdek boshqa guruhlar bo'lib shu yo'l orqali o'z mablag'ini 300-400% ko'paytirgan. Har birining yillik o'rtacha daromadi 30 ming rublni tashkil qilgan. Rossiya kapitalining Buxoroga kirib kelishi va bu yerdagi paxta savdosi mahalliy sarmoyadorlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Masalan, amirlikdagi mahalliy aksiyadorlardan Mirzamuhiddin Mansurov va Mirhikmat Mirsolihovlar yirik vakillar bo'lib, katta foizga kredit berish bilan shug'ullangan. Bular 1911-yil noyabrda Azov banki orqali 20 vagon paxtani Moskvaga jo'natgani haqida ma'lumotlar bor. Buxoro amirligida ochilgan ilk rus banklaridan biri Rossiya imperiyasi davlat bankining filiali bo'lib, u 1890-yilda Samarqand shahrida ish boshlaydi." Oradan bir yil o'tib,

¹ Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B.13.

² Amir Said Olimxon. Buxoro xalqining hasratli tarixi. T. "Fan" nashriyot.1991. -B.18.

1891-yilda Moskva — Ryazansk va Moskva Xalqaro Savdo bankining filiallari amirlik hududlarida vujudga kela boshladi. 1894-yilida esa, Yangi Buxoro (Kogon) shahrida 90 mln. rubl mablag' bilan Rossiya imperiyasi davlat bankining filiali ochiladi. 1898-yilda bu bankning umumiy pul aylanmasi 89498 mln. rublga etdi, 1899-yilda esa bu mablag' 97666 mln. rublni, 1902- yilga kelib esa 111,4 mln. rublni, 1903 yilda 123,5 mln. rublni, 1910-yilga kelib esa 3458 mln. rublni tashkil etdi¹. Buxoro amirligining tashqi savdoda asosiy mahsulot turlariga teri, yung, shoyi gilamlar tashkil etgan². XX asrning boshlariga kelib Rossiya tijorat banklarining tarmog'i yana o'sdi. Bu davrda mazkur banklarning bo'limlari O'rta Osiyoning 40 ta shaharida faoliyat yurita boshladi. Xususan, Buxoroda Rus-Osiyo, Rus tashqi savdo, Azov-Don, Sibir savdo, Moskva uyi qo'shma banklar kabi bir qator banklarning bo'limlari shular jumlasidandir. Amirlikda ochilgan Moskva tijorat davlat banki asosan savdo shahobchalari va idoralarini ochish uchun kredit bersa, Peterburg tijorat banki savdodan tashqari sanoatni rivojlantirishga ham kredit berishda xizmat ko'rsatgan. Ammo bu davrda ushbu banklardan xonlikdagi kambag'al dehqonlar kredit olish huquqidan mahrum edi. Rossiya banklaridan biri Sibir savdo bankidir. Uning O'rta Osiyodagi bo'limlari Qo'qon, Andijon va Buxoroda ish olib bordi. 1912-yil 1-fevraldan 1913-yil 1-sentabrgacha bu bankning Buxorodagi bo'limi paxta uchun 1220 ming rubl, qorako'l teri uchun 1800 ming rubl kredit bergan. Birinchi jahon urushi yillarida bank har xil firmalarga paxta sotib olish uchun 40 mln. rublgacha kredit bergan. Paxta bilan savdo qiluvchi firmalarga mahalliy millat vakillari kirgan edi. Masalan, Guljon Qobul Ashir Muhammedov, Asfiya xo'ja Burxonxo'jaev, X.Isahorov, D.Mirzaev, A.Yunusov kabi boylar shular jumlasiga kiradi. Buxorodan Rossiyaga 19,5 ming so'mlik paxta chiqarilgan va

¹ Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B.14.

² Amir Said Olimxon. Buxoro xalqining hasratli tarixi. T. "Fan" nashriyot. 1991. -B.18.

bu umumiy savdoning 2%ini tashkil etilgan¹. Paxtani sotib olish va sotish uchun Buxoroda Rus-Buxoro savdo-sanoat jamiyati tashkil topgan. U keyinchalik bankka aylantirilgan. Ma'lum bo'lishicha, amir Sayyid Olimxon o'z davrida bank masalalarida mutaasiblik kuchli bo'lishiga qaramay, bank ishiga jiddiy e'tibor bergan va unga to'g'ri maqsadda katta mablag' qo'ygan. XIX asrda Buxorodan Rossiyaga chiqarilgan yigirilgan ip va paxta umumiy mahsulotning 70%ni tashkil etgan². Shuningdek, Rus - Buxoro banki ochilib, faoliyat yuritishida uning hissasi katta oo'lgan. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, bu rus banki faqat paxta savdosi va paxta tayyorlashga mablag' berish bilan cheklanmagan, balki paxta va yog' sanoagi uchun ham kapital qo'yib katta foyda olib turgan. Rus-Osiyo banki kichik savdo bilan shug'ullanuvchilar uchun Eski Buxoroda, Voljsko-Kamskiy va Sibir tijorat banklarining bo'limlari tashkil etilgan. Azov-Don banki asosan paxta savdosi bilan shug'ullandi. Bank o'z umumiy mablag'ining 93,6 % ini paxta ishi uchun ajratadi. Bankning Eski Buxorodagi bo'limi firmalarga paxta sotib olishlari uchun kredit ajratgan. Jumladan, 1912 yilda aka-uka Haydarovlar shirkatiga 1 mln. rubl, aka-uka Mirzayevlar shirkatiga esa, 500 ming rubl foizli qarz bergan. Ushbu jadvalda amirlikdagi rus banklarning nomlari va uning yillari bilan ko'rsatib berilgan¹.

Banklarning nomlari	Tashkil topgan yili
1. Rossiya davlat banki	1890-yil
2. Moskva-Ryazansk banki	1891-yil
3. Savdogar banki	1866-yil
4. Volga-Kama banki	1870-yil
5. Xalqaro bank	1873-yil

¹ Muhammadjonov.A. Ne'matov. T. –T. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tizimiga doir bazi manbalar. O'z. CCR fanlar akademiyasi nashriyoti. 1957. –B.12.

² Ko'rsatilgan asar. –B.13.

6. Azov Don banki	1871-yil
7. O'rta Osiya Tijorat banki	1881-yil

Ba'zi manbalarda keltirilishicha, «Amir million-million so'mlik mablag'larni savdo sohasida, temir yo'l kompaniyalarida, rus va chet el firmalarining sanoat korxonalarida ishga solgan». Hujjatlarga asoslanib shuni aytilish mumkinki, Rossiyada ishlab chiqarish va sanoat hamda savdo rivojlanishida amirlik xazinasining hissasi katta bo'lgan. Yozma manbalarning guvohlik berishicha, Rossiyadagi o'nlab yirik temir yo'llar qurilishi, manafakturalarning ishga tushirilishi hamda banklarning faoliyat yuritishiga amir Sayid Olimxon kattadan-katta investitsiyalar kiritgan. Bular Neva va Staro-Gorkin manufakturalari, Staxeev firmasi, Shuya va Shibanov korxonalari, Volga-Bugulma va Rus-Buxoro temir yo'llari, Rus-Osiyo, Rus-Buxoro banklari va boshqalardan iborat bo'lgan¹. Shuningdek, S.Xolboevning "Buxoro amirligining oltin xazinasini (tarixi, taqdiri, tahlili)" nomli monografiyasida Rossiya podsho hukumatining Buxorodagi vakolatli amaldori P. Vvedenskiy tomonidan 1920-yil 26-fevralda amir hukumatining talabi bilan yozilgan amir va rus hukumati iqtisodiy aloqalariga oid to'la bo'lmagan hisobot keltirilgan. Bu hisobotda amir tomonidan rus savdo va sanoatiga kiritilgan mablag'larning miqdori quyidagicha bo'lgan

Rus banklari bilan rus shirkatlari o'rtasida yaqin aloqada bo'lgan shirkatlardan biri I.Staxeev shirkati edi. S. Xolboyevning yuqoridagi monografiyasida keltirilishicha, Sayyid Olimxon o'z boyligini Rossiyadagi katta tadbirkorlarga berib, oltin va boshqa qimmatbaho toshlardan iborat maxsus fond tashkil etadi, hatto Gollandiyada qimmatbaho toshlar savdosini yo'lga qo'yadi. Rossiyadan asosan metall keltirilgan. Inqilobdan oldin Rossiyada uning boyligidan foydalanuvchi katta bir fond ham paydo bo'ladi. Bunga taxminan 1914-yilda Rossiya Tashqi ishleri vaziri do'stining akasi oxirgi yillarda Rossiya

¹ Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B.17.

moliya sarmoyasi (kapitali) rivojlanishiga katta hissa qo'shgan taniqli tadbirkor A.A. Neratov vositachilik qiladi. U orqali Buxoro amiri Sayyid Olimxon o'zining shaxsiy boyligini hissadorlik asosida Staxeevning firmasi korxonalariga uch bosqichda o'tkazgan». 1917-yilga kelib, Rossiyaga Buxoro amiri kiritgan investitsiyalarning umumiy miqdori oltin hisobida 42,5 million so'mga etgan. I.Staxeev esa, amirdan olgan pullarga Rossiya to'qimachilik sanoatining bir necha yirik korxonalarini sotib olgan. Bularning qatorida gigant Neva manifakturasi ham bo'lgan. Amir bilan I.Staxeevning oldi- berdi muomalasi Rus-Osiyo banki hamda Birlashgan bank orqali amalga oshirilgan. 1916-yilning kuzida I.Staxeev shirkati Buxoro hukumatiga konsern (kapitalistik sanoat transport savdo korxonalari va banklarning umumiy rahbarlik ostidagi monopolistik birlashmasi - A.F.) tuzish, ya'ni Buxoro yerlarda sanoatning foydali tarmoqlarini rivojlantirish va savdoni yanada yaxshilash bilan shug'ullanishiga imkon berish taklifini kiritdi.

Shirkat amirlikda o'z faoliyatini mahalliy va texnik xom ashyoni qayta ishlash uchun sanoat korxonalarini qurishdan boshlashni mo'ljallagan. Har yili 2 mln. pud atrofida bug'doyni tortadigan bir necha tegirmon, yog'-moy zavodi, jun to'qish fabrikasini qurishni mo'ljallaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, I.Staxeev firmasi uchun nihoyatda qulay sharoit yaratilgan¹.

Tilga olingan yuqoridagi hujjatlarda I.Staxeev korxonasi 1928 yilgacha saqlanib qolgan. Rus-Osiyo banki boyligining katta qismi, butun o'z boshqarmasi bilan birga I.Staxeevning tasarrufida bo'lgan». Bu yirik rus korchaloni korxonalarining Markaziy boshqarmasi Parij shahri (Fransiya)da bo'lgan ekan. Yuqoridagi hujjatlarda qayd etilishicha, amir Sayyid Olimxon tomonidan Rossiyaga kiritilgan sarmoyalardan tushgan foyda (dividend)ning ma'lum bir katta qismi Parijdagi bankka ham oqib o'tib turgan. Shuni ham aytish kerakki, Rossiya banklari amirning sarmoyasini muomalaga kiritib katta foyda olganlar.

¹ Muhammadjonov.A. Ne'matov. T. –T. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tizimiga doir bazi manbalar. O'z. CCR fanlar akademiyasi nashriyoti. 1957. –B.13.

Buxoro amirligining Rossiya bilan savdo aloqalari asosan 2 ta yo'l bilan olib borilgan. Ular Orenburg va Sibir yo'nalishi sanaladi. Shundan Orenburg ayniqsa ahamiyatli sanaladi¹. Katta tadbirkor A. A. Neratov Volga-Bugulma temir yo'li qurilishi boshqarmasi raisi bo'lgan. U biznesmen sifatida Buxoroda bir necha marta bo'lib, amir bilan yaqindan aloqa bog'lagan. Bevosita uning vositachiligida amir Rus-Osiyo savdo banki orqali Rossiyaning Katta Rus qog'oz ishlab chiqarish fabrikasiga 33 million, Rus-Buxoro banki tashkil topishiga 2,5 million, Rus-Buxoro aksionerlik (hissadorlik) jamiyatiga ham 2,5 million, Buxoro temir yo'li qurilishiga esa, 3,5 million oltin hisobida sarmoya o'tkazgani hujjatlarda qayd etilgan. Ikkinchi katta korchalon I.Staxeev amir Sayyid Olimxondan 8 foiz xisobida kreditga olgan 25 million oltin pulni Neva. Shuya, Shibanov va Staro-Gorkin manufakturalariga sarflab, ularni oyoqqa turg'izgan². Bular esa, o'z o'rnida yaxshi faoliyat yuritib, Rossiyaga milliardlab moddiy foyda keltirgani, shuning bilan birga, uning iqtisodi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan ham aniq ko'rinib turibdi. Boshqacha qilib aytsak, amirlik xazinasini Rossiyada «kapitalizm» rivojiga sezilarli darajada madad bergan. Tashkil etilgan bunday shirkatlardan Buxoro amirligi xazinasiga ham katga daromad tushadi. Shuning bilan birga, mahalliy aholi ish bilan ta'minlanadi hamda xom-ashyo va yer sotishdan ham manfaatdor edi. Shu bilan bir qatorda, 1912-yilda Samarqandda "Manafaktura aksiyadorlik jamiyati"², "Yasyulinsk shirkati", "Albert Byubnera chit manifaktura" shirkati, Galkina va Sharevsk savdo uylari ochilgan. Shu tariqa rus banklari va savdo firmalari paxta sanoatida egalik qila boshlaydi. Natijada, paxta etishtirishni ko'paytirish uchun aholiga mayda kredit berish yo'lga qo'yiladi. Rossiya davlat bankining Buxorodagi bo'limlari aholiga 6-8 hatto 10%gacha kredit bera boshlagan. Rossiyaning iqtisodiy choralari natijasida Buxoro va O'rta Osiyo sanoati va tashqi savdosi

¹ Muhammadjonov.A. Ne'matov. T. –T. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tizimiga doir bazi manbalar. O'z. CCR fanlar akademiyasi nashriyoti.1957. –B.11.

² Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. –B.19.

to'liq Rossiya tomonidan nazorat qilinadigan bo'lgan. Bu imperiyaning iqtisodiy mustamlakachilik siyosatini Buxoro amirligida batamom amalga oshira olganligidan dalolatdir. 1920-yil 2-sentabrda bolsheviklar rahbarligidagi Turkiston fronti qo'shinlari tomonidan Buxoro amirligi tugatilib, uning o'rniga Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgandan keyin ham, o'lkadagi faoliyat ko'rsatib kelayotgan shirkat va aksionerlik jamiyatlari paxta yetishtirish va uni sotishga xizmat qilgan. Shu tufayli Buxoro paxta yetishtiriladigan maydonga aylangan. Buxoro respublikasi paxtachilikda Rossiya mavqeini kuchaytirish maqsadida 1923-yil "Rus-Buxoro davlat paxta shirkati"ni tashkil etdi¹. Bu shirkatning asosiy vazifasi Buxoroda paxta yetishtirish hamda paxta sanoatini tiklash, Buxoro paxtasini xususiy va yakka tartibdagi olib-sotuvchilardan himoya qilish edi. Chorvachilikni tiklash va nazorat qilish maqsadida eksport bo'yicha ikki shirkat tashkil qilindi. Ikki shirkatning umumiy mablag' fondi 2 mln. so'm (sovet puli) edi. Bunga ham qanoat hosil qilmagan markaz mintaqada O'rta Osiyo respublikalari iqtisodiyoti boshqaruvini markazlashtirish va uni nazorat qiluvchi organ tashkil etishni mo'ljalladi. Shu maqsadda 1923-yil 5-9-martda O'rta Osiyo respublikalari iqtisodiy konferensiyasida O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tuzildi. Konferensiya qaroriga ko'ra, BXSR Mehnat va Mudofaa kengashi Buxoro Iqtisodiy Kengashiga aylantirildi. Iqtisodiy Kengash Buxorodagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda Markazning "ko'z va qulog'i" vazifasini bajardi. Bu kengash iqtisodiyotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar yuzasidan hal qiluvchi ovozga ega edi. Buxoro Iqtisodiy Kengashi paxta xomashyosining davlat ixtiyoriga o'tashini ta'minlash va yakka tartibda olib-sotarlardan himoya qilish lozim edi. Misol tariqasida 1923-yil 11-iyuldagi kengash majlisida ko'rilgan masalalardan biri BXSR Savdo Nozirligi Turkiston bosh paxta qo'mitasiga jo'natilgan paxta uchun order berishni, omborlarda qolgan paxta BXSR Savdo nozirligi tomonidan Turkiston

¹ Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B.20.

paxta qo'mitasiga ikki oy davomida zudlik bilan jo'natilishi va bu haqda Moskvaga telegramma orqali xabar berish ta'kidlangan. 1924-yil 10-fevralda o'tkazilgan navbatdagi kengash majlisida paxta ekiladigan maydonlarni kengaytirish maqsadida dehqonlarga 1 mln. so'm (sovet puli) miqdorida qarz berishga qaror qilindi. Bu vazifa O'rta Osiyo Qishloq Xo'jalik banki zimmasiga yuklatildi. Shu yilning 21-fevralida o'tkazilgan kengash majlisida O'rta Osiyo Qishloq xo'jalik bankining Buxorodagi bo'limi Sharqiy Buxoroda 450 ming so'm (sovet puli) miqdorida mablag'ga egalik qiluvchi 20 ta shaxobchasini ochish haqida qaror chiqardi. Sharqiy Buxoroga ajratilayotgan mablag'ni kengashning o'zi viloyatlarga taqsimlab chiqdi. Buxoro va Rossiya o'rtasida bojxona bitimi ham imzolangan. Bunga ko'ra bir hududdan boshqa hududga bojsiz savdo qilingan¹.

1923-yil 24-oktabrdagi Buxoro Iqtisodiy Kengashi majlisida mavjud Buxoro Davlat tikuv-yigiruv fabrikasiga "Qizil Sharq" deb nom berildi. Unga A.A.Belyakov direktor etib tayinlandi. A.A.Belyakov o'zining ikki o'rinbosari nomzodini Savdo nozirligiga taqdim etishi, 1923-1924 yillar mobaynida fabrika faoliyati va rejalari haqida hisobot berishi kerak edi.

1923-yil 17-18-sentabrdagi Buxoro Iqtisodiy Kengashi majlisida Buxoroda havo flotini qurish va O'rta Osiyo universiteti fondiga pul o'tkazish haqida to'xtalib o'tildi. Majlis qaroriga ko'ra, Buxoro-Xiva-Sharqiy Buxoro yo'nalishida havo flotini tashkil etish masalasi ko'rilib, Sokolov, Geylig va Golovinlardan iborat uch kishilik komissiya tuzildi. Ularning zimmasiga olti kun ichida havo reyslari rejasini ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan. Viloyatlar xo'jalik hayotini boshqarish va yo'lga qo'yish maqsadida viloyat iqtisodiy kengashlarini tashkil qilish ko'zda tutiladi. Shu maqsadda birinchi navbatda Eski Buxoro, Chorjuy va Karmanada viloyat iqtisodiy kengashlari tashkil qilindi hamda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun Iqtisodiy Kengash o'z vakillarini bu viloyatlarga yubordi. Xulosa qilib aytganda, Buxoro Iqtisodiy

¹ Shodiyev.J.M. Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi. T. 2010. –B. 48.

Kengashi BXSrdagi ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi isloxotlarni amalga oshirishda oliy boshqaruv organi hisoblangan hamda markaz va O'rta Osiyo kengash ko'rsatmalariga amal qilgan. Shu orqali BXSrdagi sovet tuzumini o'rnatilishi va markazga bo'ysunishida jonbozlik ko'rsatgan.

Chor Rossiyasi amirlikni faqat iqtisodiy jihatdan emas balki siyosiy jihatdan ham kuchli nazorat ostida saqladi. Bu sohada Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agentligining faoliyati yaqqol misol bo'la oladi. 1873-yilgi Rus-Buxoro "Do'stligi" to'g'risidagi sharnomaga binoan 1886-yili yanvarida Imperator Aleksandr III farmoni bilan Buxoro amirligida Rossiyaning siyosiy agentligi tashkil etildi. Agentlikni siyosiy agent boshqarib, tashqi ishlar vazirligi tomonidan tayinlangan. Rossiya siyosiy agentligi 1910-yildan boshlab Turkiston general gubernatorligiga bo'ysunadigan bevosita Rossiya Harbiy va Tashqi ishlar Vazirligiga itoat etadigan bo'lgan. Demak, siyosiy agentlik harbiy tashkilot vazifasini o'tardi. Amir hukumati Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan olib boradigan aloqalari va muhim ichki tashqi siyosat masalalarini siyosiy agentlik bilan maslahatlashib yuritishga majbur bo'lgan. 1903-yil 5-mayda Nikolay II Rossiya imperatorlik siyosiy agentligining "Huquq va burchlari" to'g'risidagi qonunga imzo chekdi¹. Shunga binoan siyosiy agentlikka: amir va uning vazirlari ustidan nazorat, Afg'oniston chegarasini kuzatib turish, gazeta va teatrlarni senzurasini, Xristianlar huquqlarini himoya qilish, Zarafshon suvining taqsimoti, kasalxonalar qurulishi, pochta-telegrafni nazorat qilib turish yuklatilgan. Rossiya siyosiy agentligi amirning "yaqin maslahatchisi" hisoblanib faqat Rossiya-Buxoro munosabatlari masalalarida emas balki ichki siyosat va hatto lavozim va vazifalarga tayinlashda ham asosiy rol o'ynagan. Siyosiy agentlik nafaqat Qo'shbegi yoki Qozikalanni balki katta beklarning begi va qozikalonlarini ham tayinlashda taklif va roziliklar bergan. Hatta mang'it amirlarining so'ngi vakili Said Olimxon ham (1911-1920) Rus podshosining

¹ Rashidov U, Rashidov O' Buxoroning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tarixidan (1900-1925y.y). Buxoro.: Buxoro 2013, -B. 26.

roziligi, siyosiy agentlikning taklifi bilan taxtga o'tirgan. Chunki Olimxon 1891-1896-yillari NikolayII saroyiga qarashli Nikolayevskiy kaded korpusida polkovnik Demin rahbarligida tarbiyalandi.

2.2. Buxoro amirligida ichki va xalqaro savdo

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida yarim mustamlaka Buxoro islom dinining yirik markazi bo'lib turgan bo'lsa-da, o'zining tashqi savdo huquqlaridan birmuncha mahrum bo'ldi. Ammo ichki savdoda sezilarli o'zgarishlar yuzaga keldi.

Amirning bosh shahri Eski Buxoro mamlakat savdo markazlari -dan biri edi. Amirlik Rossiya vassalligini qabul qilgandan so'ng, to Buxoroda rus temir yo'llari qurilgunga qadar poytaxt hayotida jiddiy o'zgarish ro'y bergani yo'q edi. Mustamlaka davrida rus fabrika, zavodlari, savdo uylari, banklarning tashkil topishi bilan mahalliy aholi inqirozga uchradi. Hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlariga bo'lgan talab pasayib, tovarlar to'planib qoldi. Yana bir salbiy tomoni shuki, yangi qurilgan korxonalardan amirlik aholisi chetlatildi, ularga nisbatan qat'iy qoidalar ishlab chiqildi. Aholi og'ir mehnat iskanjasiga tushib qoldi. Rossiya o'z manfaati yo'lida paxta yakkahokimligini o'rnatishga xarakat qildi. Bu jarayonlar Buxoro amirligida sanoat rivojining ro'y berishiga olib keldi. Buning natijasida XIX asrning 90- yillarida o'lkada zavod va fabrikalar qurildi. Zavodlarning qurilishi savdo va iqtisodiyotning ahamiyatini oshirdi. Shuningdek, 1878—1888 yillarda qurilgan Kaspiyorti temir yo'llari va 1907-yil Kogon - Buxoro temir yo'l tarmoqining o'tkazilishi poytaxt Eski Buxoroning savdo iqtisodiyotini rivojlantirishga hissa qo'shdi. XIX asr oxirlariga kelib rus kapitalining shaharga kirib kelishi tezlashdi. Bu davrga kelib, Eski Buxoroda yettita bank filiali ochildi. Amirlik shaharlarida jami 60 ta kichik korxona faoliyat ko'rsatib, ularning faqat yettitasi buxoroliklarga tegishli edi.

Shuningdek, poytaxtda 300 dan ziyod turli mahsulotlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan hunarmandchilik ustaxonalari mavjud bo'lgan. Buxoro shahri hunarmandchilikning yirik markazi bo'lib, uning 100 dan ziyod turlari mavjud bo'lgan. Amirlikda savdo aloqalarida Rossiya bilan hamkorlikda eng avvalo yo'llar xavsizligi taminlash bosh omilga aylandi¹.

¹ Muhammadjonov.A. Ne'matov. T. —T. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tizimiga doir bazi manbalar. O'z. CCR fanlar akademiyasi nashriyoti. 1957. —B.14.

Shaharda ikkita eng yirik savdo majmui shakllangan va 60 dan ortiq karvonsaroylar mavjud edi. Chet el savdogarlari uchun asosan Abdurashid, Mirzo G'ulom, Badriddin karvonsaroylari xizmat ko'rsatgan. 1894-yili Buxoro amirligining Rossiya bilan yagona bojxona tizimiga kiritilishi, uning xorijiy davlatlar bilan mustaqil savdo aloqalarining cheklanishiga olib keldi. Amirlik ichki bozorida Buxoro va Samarqanddan tashqari Termiz, Qarshi, G'uzor xam ahamiyatli o'rin kasb etgan. Masalan, G'uzor chorva mollari sotish va sotib olishda eng katta bozor bo'lgan. Kattaqo'rg'onda charm va poyabzal ishlab chiqarish, Hisorda metallardan buyum tayyorlash rivojlangan. Amirlik iqtisodiyotining rivojiga imkon yaratgan omillarning biri amirlikda temiryo'llarning qurulishi sanaladi². Qog'oz ishlab chiqaruvchi korxonalari bo'lgan. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, XX asr boshlarida Buxoroda qog'oz tayyorlash korxonasi shahar atrofidagi G'alaosiyo va G'urbun qishloqlarida joylashgan. G'urbun qishlog'idagi qog'ozsozlik korxonasida 46 kishi mehnat qilsa, G'alaosiyo qishlogidagi korxonada 51 kishi faoliyat olib borgan. Buxoro qog'ozi Samarqand qog'ozi bilan sifat jihatdan raqobatlasha olmasa-da, ammo foydalanilgan asosiy mahsulotlari bilan ajralib turgan. XIX asr oxirlarida Samarqand Qo'qon qog'ozini tayyorlashda eski to'n, ishlatilgan paxtadan foydalansa, Buxoroda birinchi navli paxtadan foydalanishgan. Buxoro bozorlaridagi sifatli qog'ozlar zig'ir tolasi, kanop, paxta, ipak chigitlaridan tayyorlangan qog'ozlardir. Buxoro markaziy bozorlari bilan Sharqiy Buxoro, ya'ni tog'li bekliklar o'rtasida Qarshi shahri vositachi vazifasini bajargan.

Amirlik poytaxti Buxoroda savdo-sotiqqa ixtisoslashgan turli-tuman mollar sotiladigan alohida bozorlarning yo'lga qo'yilganligi, savdo madaniyatining ancha yuksak bo'lganligidan dalolatdir. Man-balarda yozilishicha, amirlik poytaxtidagi bozorlarda 3 xil savdo markazi faoliyat ko'rsatgan. Bular turli xil mato savdosi bilan shug'ullanadigan markaz, kiyim-kechak, idish-tovoqlar va attorlik buyumlari bilan savdo qiladigan rastalar, pul almashtirish (sarroflik)

¹ Rashidov U, Rashidov O' Buxoroning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tarixidan (1900-1925y.y). Buxoro.: Buxoro 2013, -B. 26.

rastalariga bo'lingan.

Masalan, XX asr boshlaridagi Buxoro hayotini chuqur o'rgangan sharqshunos A.A.Semenov mahalliy bozor rastalarining boyligi hamda rang-barangligi, Sharq va G'arbda ishlab chiqarilgan mollarni sotib olish imkoniyatining kengligi haqida quyidagicha guvohlik beradi: "Buxoro bozorida Shveystariyadan keltirilgan quyultirilgan sut, Germaniyadan konsentrat holda keltirilgan Libix quruq sho'rvasi, Shanxayning quruq zanjabil murabbosi, Birma poytaxti Rangundan olib kelingan xushbo'y shamlar, Malta orolidan, Hindistondan keltirilgan zardo'zlik ro'mollarini, hind rupiylari, Meksikaning kumush dollari, Turkiyaning oltin lirasi, ingliz funt sterlingini bimalol xarid qilsa bo'lardi".

Buxoro bozorining yana bir sharqona o'ziga xos tomoni savdo-sotiq ishlarining issiq va sovuqdan himoya etilgan yopiq toq va timlarda amalga oshirilganligidir. Buxoro shahrida shunday yopiq bozorlardan 50 taga yaqin bo'lib, har bir bozorda o'ziga xos mahsulot sotilgan. Masalan, bozori go'sht, g'alla bozori, pista bozori, yog'och bozori, kiyim-bosh va boshqa bozorlar shular jumlasidan bo'lgan. Iqtisodiyotning rivojlanishida rus manzilgohlarining o'rni katta bo'lgan. Yirik rus manzilgohlari qatorida Yangi Chorjo'y, Termiz, Amirobod, Yangi Buxoro, Qarshi shaharlari bo'lib, bular ichki savdoda muhim o'rin tutgan.

1893 yilga kelib Buxoro amirligida vino ishlab chiqaruvchi zavodning qurilishi bilan Turkiston general-gubernatori tomonidan vino ishlab chiqarish qoidalarini tasdiqlandi. Bu haqda tadqiqotning oldingi qismida alohida to'xtaldik. Amirlikda Rossiya bilan hamkorlikda huquqiy asoslar ham yaratilgan bo'lib, bu keying hamkorlik yo'lga asos bo'ldi¹. Amirlikning Rossiya bilan savdo aloqalari Ahmad Donish ham o'zining Peterburg va boshqa Rossiya shaharlarga qilgan sayohati jarayonida iqtisodiy munosabatlarni aytib o'tgan². Ishlab chiqilgan qoidalarga asoslanib, o'tkir ichimliklar savdosini yo'lga qo'yilishida rus manzilgohlaridagi harbiy boshliqlarga alohida e'tibor qaratildi.

¹ Shodiyev.J.M. Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi. T. 2010. –B. 44.

² A.Donish. Navodirul vaqoe. O'zbekiston SSR. "Fan" nashriyoti. T. 1964. –B.13.

Masalan, 1914-yilning sentabr oyida Buxoro amirligidagi rus manzilgohlari hisoblangan Yangi Buxoro, Chorjo'y, Kerki, Termiz harbiy boshqarmasi boshliqlarining Rossiya imperiyasi siyosiy agentligining Buxorodagi vakiliga yozma bergan hisobotida ushbu hududlarda 1914-1915 va 1916-yillarda o'tkir ichimliklar savdosi turi va joylari sonining taxminiy ishlab chiqilgan qoidalarini Turkiston general-gubernatori tasdiqlab berishi so'ralgan. Hisobotda ichimliklarni sog'ish bilan shugullanadigan joylarning turi va sonining jadvali ham keltirilgan. Arxiv manbalarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Rossiyaning O'rta Osiyodagi aloqa yo'llari vaziri A.Trepov ishtirokida 1916-yilning 14-17-avgust kunlarida kengash o'tkaziladi. Kengash a'zolari tomonidan ikkita farmoyish ishlab chiqilib, 10-oktabrda tasdiqlanadi. Bular "Yoqilg'i va oziq - ovqat mahsulotlari, shuningdek, spirt, vino, aroq va boshqa ichimliklarni amirlik hududida joylashgan temir yo'l stanstiyalardan qabul qilib olinishi to'g'risidagi" hamda "Qabul qilingan o'tkir ichimliklar spirt, vino, aroq va boshqa ichimlik mahsulotlarini stanstiyalarda saklash va sotishni yo'lga qo'yish to'g'risida"gi farmoyishlari shular jumlasidandir. Ushbu farmoyishlarning kopia nusxasi arxivda saqlanib qolgan. Yuqoridagi kengashda ikki farmoyish yuzasidan qoidalar xam ishlab chiqadi. Masalan, "Qabul qilingan o'tkir ichimliklar - spirt, vino, aroq va boshqa ichimlik mahsulotlarini stanstiyalarda saqlash va sotishni yo'lga qo'yish to'g'risidagi" farmoyish qoidasining ikkinchi bandida o'tkir ichimliklar (konyak, uzumdan tayyorlanadigan vino, pivo va boshqalar)dan tashqari spirt va sharob savdosi bilan shug'ullanuvchilar quyidagilarga amal qilishlari shart bo'lgan.

a) Har bir savdo tashkilotlari soliq nazorat organlaridan olgan ruxsatnomalari asosida ichimlik savdosi bilan shug'ullanishlari b) savdo do'konlar ichimlik mahsulotlarini ko'paytirishi uchun gubernator yoki mahalliy harbiy ma'murlardan ruxsat olishlari va boshqa masalalar belgilab berilgan. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, beklıklarda umuman amirlik hududida inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan spirtli ichimliklarni sotish hamda

noqonuniy faoliyat olib boradigan zavodlarga nisbatan choralar ko'rish va faoliyatini to'xtatish borasida islohotlar ham olib borilgan. Masalan, 1914-yil 10-oktabrda Kerki harbiy gornizon boshlig'i polkovnik Bulgakov, shahar deputat vakillari D.Kacharov, L.Aleksandrov, S.Melik-Karamyanst ishtirokida Kerkida "spirtli ichimliklarni sotishni to'xtatish to'g'risidagi" farmoyishini imzolashadi¹. Unga ko'ra, Kerkida sharob, aroq, konyak, likyor kabi spirtli ichimliklarini sotishni to'xtatish, uzumdan tayyorlanadigan, me'da kasalliklarni keltirib chiqaradigan sifatsiz ichimliklarni sotishga yo'l qo'ymaslik kabi masalalar yoritilgan.

Yangi Buxoro shahrining jug'rofik va strategik jihatday qulay yerda joylashganligi, bu erdan temir yo'lining o'tganligi uning iqtisodiy taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Tadbirkorlar va savdogarlar bu shahar hududidan yerlar sotib oldi. 1888-yilning 30-iyunidan boshlab rus savdogarlari, mahalliy savdo vakillari va tadbirkorlari Yangi Buxoro shahridan yer so'rab amirga murojaat qilgan. Bu davrda bir kishiga sanoat korxonasi qurish uchun 750 sajendan 1500 kv. sajengacha yer berish ko'zda tutilgan edi. Bir kv. erning narxi 50 tiyin (2 tanga) qilib belgilangan. 1890-yildayoq Yangi Buxoro shahrida bir nechta transport firmalarining vakolatxonalari, ko'plab do'konlar, savdo rastalari, pochta telegraf xizmatlari mavjud bo'lgan. XX asr boshlariga kelib, shaharcha amirlikda savdo aloqalarining rivojlanishi bo'yicha birinchi o'rinda turgan. Amirlikning Hindiston, Eron, Afg'oniston, Rossiya shaharlari bilan olib boriladigan tashqi savdosida yetakchi rol o'ynagan. 20 ga yaqin Yevropa firmalari amirlik bilan tuzilgan shartnomalarga asosan bir yilda 10 mln². so'mga yaqin mahsulotni Kogon shahri orqali olib kelishgan va chetga chiqarilgan.

A.Gubarevich-Rodobulskiy o'z tadqiqotlarida Yangi Buxoro shahrida 3 ta zavod borligini ta'kidlaydi. Ammo muallif bergan ma'lumotlar aniq emas. 1903-yilga kelib Yangi Buxoroda «K-Poznanskiy» akstiyadorlik jamiyati, «O'rta

¹ Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B.33.

² Ko'rsatilgan asar. -B.34.

Osiyo Eron savdo sanoati shirkati», «Flyaksman B» savdo uyi, tadbirkor Baxtadzening vino zavodi, Dyurshmidtning ichak tozalash zavodlari, tadbirkor Litvanning tamaki fabrikasi, Epifanovning gugurt fabrikasi va meneral suv ishlab chikaruvchi zavodlari faoliyat ko'rsatgan. Buxoro amirligida Kashmirdan keltirilgan 3 mingdan ortiq guldor ro'moldan 2 mingtasi yuborilgan¹.

R.S.Konopkaning ma'lumoticha, 1910-yilda Yangi Buxoroda 8 ta paxta tozalash zavodi, 3 ta transport idorasi, 3 ta spirtli ichimliklar va oziq-ovqat do'koni, 3 ta metal buyumlari sotiladigan do'konlari, 1 ta tikuv mashinalari do'koni, 4 ta savdo sanoat kontorasi, 2 ta kerosin sotuvchi, 1 ta tamaki, 5 ta manifaktura mahsulotlari sotuvchi, 3 ta tayyor kiyimlar sotuvchi do'kon, 4 ta mehmonxona va boshqa maishiy xizmat uylari, 1914-yilda 1 ta yog' ishlab chikaruvchi zavod borligini ta'kidlaydi.

Buxoro amirligining janubiy-sharqiy bekliklari geografik jihat -dan qulay hamda tabiiy boyliklarga boy hududlardir. Yirik savdo markazlari, bozorlar shu hududlarda ya'ni Qarshi, Termiz shaharlarida joylashgan. Amirlikdagi Qarshi bozori markaziy bozorlardan biri bo'lgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, Qarshi, G'uzor shaharlariga Sharqiy Buxorodan yiliga 7-8 mingdan ortiq tuyalarda guruch, bug'doy, kunjut, zig'ir, tariq va boshqa mahsulotlar olib borilgan. Buxoro va Qarshi shaharlarida aholi iste'moli uchun zarur don mahsulotlari zaxirasi ko'plab saqlangan. Bu bozorlardan tashqari G'uzor, Denov, Sherobod shaharlarida ham don mahsulotlari bozorlari bo'lib, bu bozorlarga don va boshqa g'alla mahsulotlari atrofdagi qishloqlardan olib kelingan.

Termizda XX asr boshlariga kelib, 20 tadan ortiq bozor bo'lib, eng katta bozor Pattakesarda (Termiz) joylashgan, bu erga Buxorodan tashqari chet davlatlardan ham ko'plab mollar olib kelingan. Amirlikda, qolaversa, Surxon vohasida Boysun, Darband, Dashnobod va boshqa bozorlar janubiy bekliklarda ahamiyatli bozorlar hisoblangan. Beklikda bozorlar belgilangan kunlarda

¹ Barakayev J, Haydarov Y. Buxoro tarixi. T. O'qituvchi. 1991. –B.108.

haftada 2 kun ishlagan. Buxoro amirligining shimoliy qismidagi bozorlar qishloq xo'jalik mahsulotlari va chorva mollarining narxlari janubiy qismiga nisbatan farq qilgan. Janubdagi bozorlarga masalan, Sherobod, Termizga ko'proq chetdan (Xiva, Rossiya, Afg'oniston, Hindiston) mahsulot olib kelingan. Shimoliy qismdagi bozorlarda esa chetdan keltirilgan mahsulotlar ancha kam olib borilgan. Temir yo'l tarmoqlari qurilganidan so'ng, Buxoro amirligi hududiga Rossiya mahsulotlarining kirib kelishi bir necha barobar ko'paydi. Tovar munosabatlari va savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida har bir shahar savdo markaziga aylandi. Savdo markazlari ularda sotiladigan mahsulotlarga qarab ixtisoslashgan edi. Buxoro shahri qorako'l teri, choy va rus mahsulotlari, G'uzor, Qarshi, Sherobod don mahsulotlari va chorva mollari sotiladigan markazga aylangan.

XX asr boshlarida qishloq xo'jaligida paxtachilikning rivojlanishi natijasida paxta savdosi bilan bog'liq bozorlar ko'paya boshlagan. Amirlik xududida yetmishdan ortiq paxta bozori belgilangan kunlarga qarab haftasiga 2 marotaba ishlagan¹. Masalan, birgina Surxon vohasining 25 ta yirik bozorida har kuni paxta sotish yulga ko'yilgan. Ma'lumki, Rossiya bilan Buxoro o'rtasidagi asosiy savdoni paxta xom-ashyosi tashkil qilar edi. Paxtani sotib olish va uni Rossiyaga jo'natish maqsadida Buxoro amirligida paxta bilan bog'liq savdo markazlari va bir qancha jamiyatlar tuzildi. Jumladan, Termizda «Sharqiy Buxoro jamiyati», «Rossiya jamiyati» va «Kavkaz Merkuriy jamiyati» tashkil qilingan bo'lib, ular ko'plab miqdorda paxta sotib olib, Rossiyaga jo'natishgan.

XX asr boshlarida Termiz shahrida Shalman, Baxtadze, Avanov, Karimov, Axnazarov, Aganosov, Arutyunov, Ayrapetov, Gozarov, Davidovlarning savdo do'konlarida chetda keltirilgan turli xildagi sanoat mollari sotilgan.

Amirlikning barcha shaharlaridan Buxoroga maxsus ot- tuyalardan iborat karvon kelib turgan. Karvonlar uchun alohida ot va tuyalar xizmat qilgan. Faqat Qarshi shahrida 6000 tuya yuk tashish uchun xizmat qilgan. Buxoroda ichki

¹ Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B.35.

savdo uchun sharqona uslubda qurilgan ikki qavatli karvonsaroylardan foydalanilgan. Ularning birinchi qavatida olib kelingan savdo mollari va ot aravalar joylashtirilgan, ikkinchi qavatida esa, tijoratchilar joylashgan. Buxoro shahrida savdogarlar uchun mo'ljallangan karvonsaroylar soni 38 ta bo'lib, shundan 10 tasi amirga tegishli bo'lgan. Amir o'ziga tegishli karvonsaroylarni ijaraga berib, katta-kichikligiga qarab yiliga 100 tillodan 300 tillogacha (420 so'mdan 1260 so'mgacha) ijara puli olgan¹.

Ichki va tashqi savdoda savdo yo'llari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Samarqand, Termiz, Buxoroning tog'li zonalari xavfli va o'ta mashaqqatli hisoblangan. Buxoro hukumati bilan Dmitriy Konstantinov tomonidan 1891-yilda 24-aprelda Kitobdan Taxtaqorachagacha bo'lgan tog' yo'llarini ochish va ta'mirlash majburiyatlarini belgilovchi shartnomalar imzolangan bo'lib Sharqiy Buxoro bozorlarini bir-biri bipan bog'lash mahalliy hokimlarga yuklangan. Bunga ko'ra Kitobga Taxtaqoracha orqali o'tgan tog' yo'lini 4 verstga yoki 9-10 sajenga uzaytirish ko'zga tutilgan. Ushbu loyihaga 25909 rubl 14 kop. sarflangan. Bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarning loyihasi Konstantinov tomonidan ishlab chiqilgan. Shartnoma loyixasi 15 bandan iborat. Bunda kontrakt asosida bajarilishi lozim bo'lgan ishlar 5 oy muddatda bajarilishi, loyiha uchun mas'ul shaxsning majburiyatlari belgilab berilgan. 1900-yilga kelib Samarqand - Kitob - Shaxrisabz – G'uzor - Sherobod - Termiz shaharlarini bog'lovchi 373 verst masofada transport qatnaydigan katta yo'l qurildi. 1913-1915-yillarda relsli yo'llar Kogon - Qarshi - Kerki - Termiz yo'llari qurildi¹. Yuqorida aytib o'tkanimizdek, temir yo'llar qurilguniga qadar amirlikda yuklarni tashish va manzilgohlarga etkazishda ot va tuyalardan foydalanilgan. Janubiy Sharqiy beklklarda yuklarni tashish uchun bir oy davomida 500 tagacha, qishda esa 1000 tagacha tuyadan foydalanilgan. Tuyalarda yuklarni tashish turlicha bo'lgan. Sheroboddan Qarshigacha 3 rubl 40 kopeykadan - 4

¹ Rashidov U, Rashidov O' Buxoroning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tarixidan (1900-1925y.y). Buxoro.: Buxoro 2013, -B. 25.

² Ko'rsatilgan asar. -B.39.

rublgacha, Kelifgacha 3 rubldan - 3 rubl 50 kopeykagacha, G'uzorgacha 2 rubl 60 kopeykadan - 3 rublgacha, Amudaryo kechuvidan Chuchkaguzargacha 1 rubl 60 kopeykadan - 1 rubl 90 kopeykagacha kira haqi olingan. Temir yo'llarning qurilishi ahvolni ancha yengillashtirgan. Aholini manzilgohlariga etkazishda ham muhim ahamiyat kasb etgan.

1911-yilda M.M.Dolgorukova, V.P.Xarchevnikov loyihasi asosida Qarshi – G'uzor - Termiz yo'nalishlarida temir yo'l ishga tushirildi. 1912-yilda 581 verst bo'lgan oraliq masofada Chorjo'y - Kalif, Sherobod - Hisor yo'nalishlari, Sherobod sahrosidan Termizgacha 25 verst, Kerkiga 60 verst masofada bo'lgan temir yo'llar qurilgan. Quyidagi jadvalda Buxoro amirligi hududida ichki savdoda yuklarni tashishda xizmat qiladigan temir yo'llarning umumiy uzunligi ko'rsatilgan" (1 verst= 1.06 km). O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilishi mintaqada siyosiy mustaqillikka barham berilib, uni iqtisodiy asoratga solinishiga olib keldi. Ma'lumki, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amirligi Sharqning yirik davlatlardan biri bo'lgan. Amirlik bu paytda Afg'oniston, Eron, Turkiya, Xitoy, Xindiston bilan bir qatorda Yevropa va Atlantika orti davlatlari bilan savdo aloqalarini olib bordi. Xususan, Angliya, Amerika, Germaniya davlatlariga va Konstantinopol bozorlariga amirlik mahsulotlari eksport qilingan. Amirlik asosan Rossiyaga paxta, ip gazlama, qorako'l teri, jun kabi mahsulotlar yuborilgan¹. Amirlikning umumiy eksport qiladigan mahsulotlari asosan paxta, yog' mahsulotlari, qorako'l teri, jun va jun mahsulotlari, ipak va shoyi matolaridan iborat bo'lgan edi. Bu mahsulotlarning sifati dunyo bozorida yuqori bo'lgan. 1913-yilda Buxoro Konstantinopol bozorlariga 5 ming pud miqdorda mahsulot kiritib sotuvga qo'ygani ma'lum.

Chorjo'y va Yangi Buxoro (Kogon)da jun tozalaydigan maxsus zavodlar bo'lgan. Ishlov berilgan qo'y terilari Lvov va Rigaga eksport qilinib, shu yerdan Germaniyaga jo'natilgan. Har yili jun mahsulotlarining 50 foizi, ya'ni 50 ming pudgacha Angliya va Amerika davlatlariga eksport qilingan. Eksport qilinadigan

¹Barakayev J, Haydarov Y. Buxoro tarixi. T. O'qituvchi. 1991. –B.109.

ipak kalavasining 4 ming pudi Yevropa davlatlariga, 3 ming pudi Genuya (Italiya) davlatiga eksport qilingan. Buxoroning yuqori sifatli to'qilgan gilamlari xorij bozorlarini o'ziga jalb qilgan. Masalan, Amerika bozoriga 75% dan kam bo'lmagan 7.5 ming pudga yaqin gilam olib ketilgan. Ildiz mevalardan qizilmiya o'simligi mahsulotlari Boku orqali asosan Shimoliy Amerikaga chiqarilgan. Buxoroda tayyorlanadigan pishloq mahsulotlari esa, XX asr boshlariga kelib faqatgina Rossiyaga, Sharqiy va G'arbiy Yevropa bozorlariga chiqarilgan.

XX asr boshlarida Amirlikning Rossiyadan tashqari Yevropa davlatlariga eksport ulushining umumiy narxi 2.295 ming rublga yetgan. Amirlikning bojxona tizimga kirishi, o'z navbatida, tashqi savdoda ma'lum darajada Sharq va G'arb davlatlaridan yakkalanib qolishiga olib keldi. Ma'lumki, dastlab kiritiladigan va chiqariladigan tovarlar uchun xonlikda boj emas, zakot olish belgilangan edi. 1872-yil 1- aprelda Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Zakot boshqarmasi tashkil etilib, 1874 -yil 10 -dekabrgacha o'z faoliyatini olib borgan. 1875-yildan Turkiston Zakot boshqarmasining tugatilishi tufayli, o'lka 1881-yilgacha bojxona nazoratidan chetda koladi. Bu vaqt davomida 1868-yilda qo'shni xonliklardan olib kelinadigan choyga nisbatan o'rnatilgan birinchi rus bojini va boshqa to'lovlarni undirishga ham hech qanday idora jalb etilmagan. Vujudga kelgan bu vaziyat Rossiya imperiyasi hukumatini tahlikaga solib qo'ydi. Birinchidan, Rossiya va O'rta Osiyo xonliklari o'rtasida imzolangan shartnomalarga ko'ra, bu hududlardan kirib kelayotgan mahsulotlardan bojxona to'lovlari undirilmas edi, aksincha, zakot olish ko'rsatilgan edi. Masalan, 1873-yilgi shartnomaning 6-moddasiga ko'ra, rus savdogarlarining Rossiyadan Buxoroga yoki, aksincha, amirlikdan imperiyaga jo'natiladigan barcha mahsulotlaridan avvalgi 5% boj solig'i o'rniga 2.5% zakot olish belgilangan. Ushbu shartnomalar xonlikda amal qiluvchi shariat qoidalarini jiddiy buzilib, ruslar endilikda musulmon savdogarlarigina foydalanadigan huquqqa ega bo'ladi. Rus savdogarlari zakotdan boshqa soliqlar to'lashdan ozod etiladi. Shartnomaning 7- moddasi esa

rus savdogarlariga Buxoro xududidan qo'shni davlatlarga mahsulotlarni bojsiz olib o'tish huquqini, berdi.

O'rta Osiyo xonliklarini boj tizimiga kiritishdan avval Turkiston general-gubernatori tomonidan bir qator qoidalar ishlab chiqildi¹. Jumladan, 1881-yil 19-dekabrda Turkiston general-gubernatori vazifasini bajaruvchi Kolpakovskiy O'rta Osiyoga G'arbiy Yevropa va Osiyo mahsulotlari kirib kelishiga chek qo'yish maqsadida "Muvaqqat bojxona" qoidalari tasdiqladi. Qoidaga ko'ra, O'rta Osiyo xonliklarida ishlab chiqarilgan barcha turdagi mahsulotlarni Turkiston general-gubernatorligi hududiga bojsiz olib kirishga ruxsat yetilganligi barcha ingliz-hind (choy, doka va bo'yoqdan tashqari), Yevropa, Turkiya va Eron mahsulotlarini Turkiston general-gubernatorligiga olib kirish qat'iyan taqiqlanganligi, bir pud choy uchun 14 rubl 40 tiyin, doka uchun 6 rubl va bir funt, bo'yoq uchun 1 rubl miqdorida boj stavkalari belgilangani, boj undirish rus kredit rublida amalga oshirilishi, olib kirish taqiqlangan yoki boj to'lashi lozim bo'lgan mahsulotlar bojxona nazoratidan yashirin olib kirilgan taqdirda musodara qilinadi. Musodaradan tushgan pulning 25% esa bojxona muassasalarining maxsus fondiga o'tkaziladi.

Buxoroning savdo aloqalari Rossiya tomonidan cheklanishi keyingi paytda imzolangan iqtisodiy shartnomalarda kuchaytirildi. Buxoro amirligidan Rossiyaga asosan paxta, qorako'l teri eksport qilsa, Rossiyadan shakar, don mahsulotlari, tayyor oziq-ovqat import qilingan. XX asrda Rossiyadan Buxoroga import qilingan tovarlarning jami 96.5 foizini, Buxorodan Rossiyaga eksport qilingan tovarlar esa, 88 foizini tashkil qilgan. Jumladan, Buxorodan Rossiyaga 1895- yilning o'zida 1294 ming so'mlik temir va temirdan ishlangan buyumlar, 1039 ming so'mlik idish-tovoqlar, 9140 ming so'mlik don va shakar mahsulotlari, 1909-yilda 1800000 dona, 1912-yilda esa 2000000 dona qorako'l teri, 1915-yilda 2624000 pud paxtani Rossiyaga eksport qilgan¹.

¹ Shodiyev.J.M. Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi. T. 2010. –B. 48.

² Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B.47.

Buxoro amirligi Rossiya bozorlariga har yili 22 ming pud manufaktura mahsulotlari, 100 ming pud shakar va konfet, 26 ming pud fosfor chikarilgan. Buxoro temir yo'l stanstiyasi ma'lumotlariga ko'ra, birinchi jaxon urushi arafasida Rossiyadan olib kelingan oziq-ovqat mahsulotlari 9140 ming rubl (26%) ni, metal, shisha va kulolchilik mahsulotlari 2273 ming rubl (6.4%) ni tashkil qilgan. Buxoro - Rossiya o'rtasidagi tovar almashinuvi yildan yilga ko'paya bordi. 1911-yilda umumiy tovar aylanmasi 75 mln. oltin pulga to'g'ri kelgan². Rossiyadan Buxoroga eksport qilingan tovarlar masalan har xil manufaktura mahsulotlari 264 ming pud (4224000 kg) dan 15974000 rubl miqdorida, temir va temir buyumlari 235 ming pud (3760000 kg) bo'lib, 12940000 rubl hamda turli xildagi idish-tovoqlar 45 ming pud (720000 kg) hisobida 1039000 rubl hisobida tovar eksport qilgan. Rossiyadagi 1917-yil fevral inqilobi Buxoro amirligining ham siyosiy, ham iqtisodiy hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Amirlik eksportining asosini tashkil qilgan paxta, qorako'l teri va jun mahsulotlarining Rossiya bozorlariga olib ketilishi kamayadi. Buning asosiy sababi, Dutov boshchiligidagi oq gvardiyachilarning Orenburgni bosib olishi natijasida, O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasida savdo aloqalari uzilgan edi. Agar birinchi jahon urushigacha Buxorodan Rossiyaga har yili 2 mln. 600 ming pud paxta xom ashyosi, 1 mln 800 ming qorako'l teri olib ketilgan bo'lsa, temir yul aloqalarining uzilib qolishi natijasida savdo aloqalari to'xtab, karvonsaroylarda mahsulotlar to'planib koldi. Buxoro va Rossiya o'rtasidagi savdo munosabatlari 1920-yilga kelibgina birmuncha tiklandi. Shu yili Rossiyaga 700 vagon paxta, 600 ming dona qorako'l teri jo'natishga muvaffaq bo'ldi. Biroq Buxoro amirligi qishloq xo'jaligida 1917-yilda lalmi va sug'oriladigan yerlar 669 ming 640 desyatinani tashkil qilgan bo'lsa, 1920-yilga kelib, 540 ming 560 desyatinaga tushib qoldi¹. Sovet Rossiyasi Buxoroni bosib olganidan so'ng, bu yerda iqtisodiy yakka hukumronlikni qo'lga kiritdi. Sovet

¹ Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. –B.47-48.

²Amonova. F. Ko'rsatilgan asar. –B.57.

armiyasi bosqinidan so'ng tashkil topgan Buxoro Xalq Respublikasi sovet Rossiyasiga mutlaqo qaram bo'lib qoldi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Rossiya Buxoro amirligini tugatishga, Buxoro Xalq Sovet Respublikasini tuzishga erishgandan keyin ham o'zaro iqtisodiy aloqalarni to'xtatmadi. Ayniqsa, 1920—1921-yillarda tovar ayirboshlash ishlari qayta yo'lga qo'ydi. Bu jadvaldan Buxoro bilan Rossiya o'rtasida 1920—1921 - yilda olib borgan savdoda tovarlarning eksport va import darajasi ko'rsatilgan.

Ko'rinib turibdiki, biz e'tibor bergan davrda Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining mustamlakasi sifatida, iqtisodiy hukuqlardan mahrum bo'lgan bo'lsada, xalqaro savdoda o'z o'rniga ega bo'ldi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilgandan keyin ham Sovet Rossiyasi bilan o'zaro rasmiy iqtisodiy shartnomalar imzolaniib, iqtisodiy kengashlar tashkil qilingan. Ammo Sovet Rossiyasi Buxoroni inqilob niqobi ostida bosib olib, uning mustaqilligini rasmiy tan olsada, uning mustaqil bo'lishiga yo'l qo'ymadi. Alohida qayd etish kerakki, Kommunistik (bolshevistik) Rossiya Buxoro amirligining chorakam ikki asr davomida to'plagan oltin xazinasini hech tortinmay bosqinchilik asosida talon-taroj qildi. Bu holatni bolshevistik-inqilobchi bosqinchilarning orasida tan olganlari ko'p bo'lgani keyingi paytlarda o'z isbotini topdi. Bu xususida maxsus tadqiqotlar olib borilib, kitoblar chop etilgani bizga ma'lum. Yuqoridagilarning guvoxlik berishicha, Buxoro amirligi O'rta Osiyo va Sharq mamlakatlari orasida ikki jihatdan alohida o'ziga xos o'rin va mavqe tutgan. Birinchidan, amirlik va uning poytaxti Buxoro qadim-qadimdan islom dinining asosiy markazi bo'lgan. Shuning uchun u dunyodagi muqaddas shaharlardan biri sifatida sharif - "Buxoroyi sharif" degan rutbai hurmatga ega bo'lgan. Ikkinchidan esa, Buxoro amirligi nafaqat O'rta Osiyo, balki Sharq musulmon mamlakatlari orasida iqtisodiy jihatdan eng boy mamlakat bo'lgan. Mana shuning uchun ham, juda shoshilinch ravishda Rossiyaning bolshevik - kommunistik partiyasi Amir Olimxon hokimiyatini Buxoro jadidlariga go'yo inqilobiy yordam berish

bahonasida 1920-yil 1-sentabrda juda katta harbiy kuch bilan ag'darib uning behad katta oltin xazinasiga ega bo'ldi. Ma'lum bo'lishicha, Amir Olimxonning farmoni bilan 1917-yilda bosh vazir Mirzo Nasrullo Biy Qushbegi juda maxfiy holatda amir xazinasini ro'yxatga olgan. Xalq respublikasining siyosiy- iqtisodiy manfaatlarini Yevropa va Osiyo davlatlari oldida himoya qilish huquqi RSFSR delegatsiyasiga berilgan edi. Bunday huquqlardan unumli foydalangan sobiq sovet Rossiyasi Kommunistik mafkura va siyosiy yondashuvni Buxoroda mustahkamlash uchun 1920-yil 18-mayda zudlik bilan bolsheviklarning davlat arbobi G.K.Orjonikidze yuborildi. U O'rta Osiyoda uch respublika (Turkiston, Buxoro, Xorazm)ni iqtisodiy birlashtirish sohasida jonbozlik qildi. Va boshqaruv tizimini markazga bo'ysundirish taktikasini qo'lladi. Haqiqatan ham, bu iqtisodiy birlashtirish orqali markaz Buxoro respublikasini davlat mustaqilligini ko'zlagan edi. Shunga ko'ra uchala respublikaning xo'jalik rejalarini ko'rib chiqish va uyg'unlashtirish umumiy qonun sharxlarini tatbiq etish savdo va moliya siyosatiga umumiy yo'nalish berish, transport, aloqa, shuningdek, paxta tabiiy xom-ashyo va boshqalarni hisobga olib, ularni markaz uchun tayyorlab berish vazifasini 1923-yil 9-martda tuzilgan O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (Sredas EKOSO) ga yuklatildi¹

¹ Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. -B.57.

Quyidagi jadvalda 1920-1921-yillar Buxorodan Rossiyaga eksport qilingan tovarlar miqdori ko'rsatilgan.

Tovarlar turi	Tovarlar 1920-yil	Miqdori 1921-yil
Don mahsulotlari	475785 ming pud	-
Poliz ekinlari	8251 pud (132016 kg)	-
Kishmish	10346 pud(165536 kg)	-
Qorako'l teri	150400 dona	50000 dona
Jun	-	13846 pud(221536 kg)
Paxta	-	142479 pud (2279664 kg)

1920-1921-yillarda Rossiyadan Buxoroga import qilingan tovarlar

Tovarlar turi	Tovarlar 1920-yil	Miqdori 1921-yil
Mevali choy	34 pud (544 kg)	
Ko'k choy	-	
Teri	-	
Deraza oynalari	-	
Tosh ko'mir	2213 pud (3540	
Neft va neft mahsulotlari		
Temir		
Tikuvchilik mashinasi		
Bosh kiyim		

Xulosa

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amirligi iqtisodiy hayotini tahlil etish orqali quyidagi yakuniy xulosalarga kelish mumkin. Rossiya imperiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasida tuzilgan shartnomalar amirlik siyosiy- ijtimoiy, iqtisodiy hayotida goh ijobiy, goh salbiy ahamiyatga ega bo'ldi. Ijobiy tomonlari shuki, bu davrda amirlikka rus sanoati kirib keldi. Har xil firmalar, savdo uylari, transport sug'urta bo'limlari faoliyat ko'rsata boshladi. Banklar endilikda paxta sotib olish va sotish, ishlab chiqarish uchun kreditlar ajratdi. Kolonial tipdagi korxona va zavodlar, ya'ni paxta tozalash , yog' ishlab chiqaruvchi zavodlar qurildi. Temir yo'llarning qurilishi, iqtisodiyotni jonlantirdi.

Ammo aholi uchun katta salbiy oqibatlar ham yuzaga keldi. Amirlikda rus zavodi fabrikalarining qurilishi, Rossiyadan tayyor mahsulotlarining kirib kelishi natijasida, hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlarga nisbatan talab pasaydi. Xususan, yana bir tomondan amirlikdagi soliq turlarining ko'pligi mahalliy ishbilarmonlar hamda oddiy mehnatkash ommaning xo'jaligini izdan chiqardi. Bu omillar ularning jiddiy noroziliklariga sabab bo'ldi. XX asr boshlariga kelib mahalliy aholi noroziliklari kuchayib qonli to'qnashuvlarga olib keldi. Qolaversa, Rossiya amirlikda mahalliy ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishiga to'sqinlikni kuchaytirdi.

Buxoro amirligining Yevropa va Sharqning yirik davlatlari bilan savdo aloqalari XX asr boshlariga kelib ancha susaydi. Chunki Rossiya imperiyasi tomonidan 1895-yilda rus bojxona tizimining o'rnatilib bojxonalarining tashkil topishi oqibatida Yevropa davlatlari bilan olib boradigan savdo munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Asosiy eksport mahsulotlarini paxta, qorako'l teri, gilamlar, attorlik buyumlari, quritilgan mevalar tashkil qildi. Amirlik hududiga Erondan tropik mevalar, Hindistondan bo'yoq mahsulotlari, Xitoydan choy, Rossiya imperiyasidan tayyor kiyim kechaklar va oziq-ovqat mahsulotlari kiritildi.

Buxoro amirligi tashqi siyosati va diplomatiyasining bu sohadagi muvaffaqiyatsizlikka uchrashining sabablari quyidagilardan iborat edi:

- Mang'it amirlari tashqi siyosiy va diplomatik masalalarining hal qilishda avvalo qo'shni davlatlar: Xiva va Qo'qon xonliklari bilan harbiy-siyosiy va savdo-sotiq munosabatlarini rivojlantirishga va ichki mahalliy nizolarni bartaraf etishga ahamiyat bermaydi;
- amirlikda yirik davlatlardan keladigan elchilik vakillari va savdogarlarning asl maqsadini aniqlash choralari yetarlicha ishlab chiqilmadi;
- amirlikning chet davlatga elchi bo'lib borgan vakillari o'zga davlatning ichki siyosatini va o'z yurtiga bo'lgan haqiqiy munosabatlarini chuqur anglab yetolmadi;
- bir qator davlatlar bilan amalga oshirilishi mo'ljallangan diplomatik aloqalar natijasiz qolib ketgan. Masalan, amir Olimxonning 1918-yil xalqaro siyosiy tashkilot - Millatlar Ligasiga yuborgan memorandumini natijasiz qoldirildi. Chunki bu paytdagi xalqaro siyosiy vaziyat shuni taqozo yetar edi.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib quyidagi taklif va mulohazalarni bildirib o'tmoqchimiz. –XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Buxoro-Rossiya munosabatlarini aks etirilgan o'quv xaritalarini tashkil etish, -XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqlarida foydalanilgan arava, paravoz, vagon, tarozi va boshqa shunga o'xshagan buyumlarning muzey ekspozitsiyalari sonini ko'paytirish, -XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi tarixni aks etirgan badiiy filmlar, rasmlar, hikoyalar, romanlarni yozish orqali xalqimizga yaqin tariximizni chuqurroq yoritishni taminlash, -Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida o'sha davrdagi qishloq xo'jaligi, chorvachilik, ipakchilik, savdogarlik sohalariga oid etnografik materiallarni nash etirish.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari

- 1.1. Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T.: O'zbekiston, 2009.
- 1.2. Karimov I. A. Yuksak manaviyat-yengilmas kuch. T.: O'zbekiston, 2008.
- 1.3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.:Sharq, 1998.
- 1.4. Karimov.I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" T.: O'zbekiston, 1999.

2.ASOSIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 2.1. Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011.
- 2.2. Barakayev J, Haydarov Y. Buxoro tarixi. T. O'qituvchi. 1991.
- 2.3. Shodiyev.J.M. Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi. T. 2010.
- 2.4. Rashidov U. Rashidov O' Buxoroning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tarixidan (1900-1925y.y). Buxoro.: "Buxoro" 2013.
- 2.5. Muhammadjonov.A. Ne'matov. T. –T. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tizimiga doir bazi manbalar. O'z. CCR fanlar akademiyasi nashriyoti. 1957.
- 2.6. Amir Said Olimxon. Buxoro xalqining hasratli tarixi. T. "Fan" .1991.
- 2.7 .Rahmon Muiniy. "Ahmad Donish hayoti haqida". –Buxoro. "Buxoro" . 2007.
- 2.8. A.Donish. Navodirul vaqoe. O'zbekiston SSR. "Fan" T. 1964.
- 2.9. Naimov.N. So'ngi hukumdor. –Buxoro. "Buxoro" 2008.
- 2.10. Shamsutdinov R. Karimov SH. Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. –T: Sharq, 2003.
- 2.11. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: Sharq, 2000.
- 2.12 Jo'rayev. N, Fayzullayev. T. Istiqlool va tarixiy jarayon (ilmiy – publistik maqolalar) T. 2000.

- 2.13 Jo'rayev.N, Mustaqil O'zbekiston tarixi.T.2013.
- 2.14 Jo'rayev.N, Fayzullaev.T O'zbekistonning eng yangi tarixi. T. 2003
- 2.15 Jo'rayev.N, Fayzullaev.T. Istiqlol va tarixiy jarayon. T. 2000.
- 2.16 Lafasov M. O'zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari. T. 1995 yil.
- 2.17 Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T. «O'zbekiston», 2001 yil.
- 2.18 O'zbekistonning yangi tarixi (Mustaqil O'zbekiston tarixi), 2 jild, T. «SHarq» 2000 yil.
- 2.19 O'zbekistonning yangi tarixi (Mustaqil O'zbekiston tarixi), 3 jild, T. «SHarq» 2000 yil.
- 2.20 O'zbekiston Respublikasi: Mustaqil davlatning bunyod bo'lishi. T. «O'zbekiston», 1992 yil.

3. Internet ma'lumotlari

- 3.1 gooogle.com <http://natlib.uz>
- 3.2 ziyo.net
- 3.3.WWW.Report.uz..
- 3.4.WWW.Gov.uz.
- 3.5.WWW.Narod.uz.
- 3.6. WWW.Gazeta.uz.